



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

ASLONOVA RISOLATNING

ZAMON DEYKSISI

MAVZUSIDAGI BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

D.A.NABIYEVA

Andijon – 2014

MUNDARIJA

Ishning umumiy tavsifi.....	2
1. Tilshunoslikda ishora birliklari va ularning tasnifi muammolari.....	6
1.1. Dunyo va o'zbek tilshunosligida deysis hodisasining o'rganilishi.....	6
1.2. Deyktik birliklar tasnifi.....	17
2. Zamonga ishora qiluvchi birliklar.....	27
2.1. Zamon deysisi va uning ifodalanishi.....	27
2.2. Zamon ifodalovchi birliklar uslubiyati.....	38
Xulosa.....	48
Foydalanilgan adabiyotlar.....	50

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Muhtaram yurtboshimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida o'zbek tili xususida gapirar ekan, uning "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir"¹, - degan so'zlari deyarli barchamizga yod bo'lib ketgan bo'lsa kerak. Tilimizga bundanda ortiqroq baho bo'lmasa kerak. O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'zni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalar, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborli holdir. "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank – moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz"². Zamonaviy o'zbek tilshunosligida shaxsning tildan foydalanish faoliyati bilan bog'liq muammolarni o'rganishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, kognitiv va pragmatik yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar til birliklarining kontekst, nutq

¹Karimov I. A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent, "Ma'naviyat". 2008, 83-85-betlar.

²O'sha asar. 87-bet.

vaziyati, muloqot egalari kabi omillar bilan bog'liq xususiyatlariga aniqlik kiritmoqda. Mana shunday dolzarb muammolardan biri o'zbek tili birliklarining matn tarkibidagi ishoraviy (deyktik) vazifasini o'rganish masalasidir. Deyksis til birliklarining kontekst, nutq vaziyati bilan bog'liq pragmatik jihatini o'rganishga e'tibor kuchaygach, deyksis muammosi pragmatikaning asosiy tadqiq obyekti sifatida kun tartibiga qo'yildi. Ilk bor U. Montegyu va P. Strosen kabilarpragmatikaning tadqiqot predmeti sifatida deyktik iboralar("men", "sen", "bu yerda", "u yerda", "hozir", "o'sha paytda" kabilar) mazmunini tavsiflashdan iborat deb qarashadi. Ushbu birliklarning referentini matnsiz aniqlash mushkul ekanligi ma'lum. Ularning ma'nosini ravshanlashtiruvchi eng kichik matn (minimal kontekst)so'zlovchi, tinglovchi, zamon, makon, registr, stil, nutqiy harakat kabi turlarni inobatga oladi. Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabi o'z "ichki" sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismning batafsil yoritilishi, o'rganilishida namoyon bo'ladi. Deyksis bevosita muloqot faoliyati bilan bog'liq hodisa bo'lganligi uchun ham uni o'rganish hozirgi kundagi muhim masalalardan hisoblanadi.

Muammoning o'rganilish darajasi. Deyksis hodisasi hozirgi kunga qadar butun dunyoda keng miqyosda o'rganilayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada ingliz, rus, nemis, isroil, farang tilshunos olimlari yetakchilik qilmoqdalar. Yehoshua Bar-hillel, Noel Mulud, S. Levinson, Jon Layonz, Karl brugman, Karl Byuller, Ch. Fillmor, R. Lakoff, V. I. Shaxovskiy, E. V. Paducheva, Emil Benvenist, Bertrand Rassel, I. A. Sternin, N. Yu. Shvedova, David Kaplan, E. Koshmider. A. A. Koshmider, A. V. Bondarko, G. Yul, o'zbek tilshunoslaridan Shaxriyor Safarov, Sotiboldi Rahimov, D. Lutfullayeva va boshqa tilshunos olimlar ushbu sohaning yetakchi vakillari hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida bu

yangi yo'nalish bo'lib, endigina o'rganilish doirasi kengaymoqda. "Deyksis" atamasi bilan hozir faqatgina shu yo'nalishda ish olib borayotganlar tanish, hatto uni eshitmaganlar ham topiladi. Bizning kundalik faoliyatimiz bevosita muloqot jarayoni bilan bog'liq bo'lgani sababli deyksisni o'rganish barchamiz uchun muhimdir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Biz zamon deyksisini o'rganar ekanmiz, o'z oldimizga u haqida to'liqroq ma'lumotlar olish, uning asl mohiyati nimadan iboratligi bilan tanishishni maqsad qilib qo'ydik va quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- a) deyksis va uning turlari haqida tilshunoslarning fikrlarini o'rganish;
- b) deyksis turlari ichida zamon deyksisining o'rni va ahamiyatini aniqlab olish;
- c) zamon deyksisining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;
- d) zamon ifodalovchi birliklarning matn tarkibida zamonga ishora qiluvchi so'zlarning grammatik xususiyatlarini belgilash.

Ishning metodologik va nazariy asoslari. Ushbu ishimizda asosiy manba sifatida Shaxriyor Safarovning "Pragmalingvistika" kitobi, G. Toirova, D. Lutfullayeva, S. Rahimov, M. Qurbonova ishlaridan va internet ma'lumotlaridan foydalandik. Ko'plab chet el tilshunoslarining fikrlari ham shu asarlardan olindi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Zamon deyksisiga yuqoridan qaraganda oddiy hodisadek tuyulsa ham, uning ichiga kirib borgan sari yangi-yangi qirralari ochilib boraveradi. Bu tadqiqotimiz keyingi ishlarda, litsey, kollej va oiliy o'quv yurtlarida qilinadigan ishlarda foydalansa bo'ladi. Bunda ko'plab olimlarning fikrlari keltirilgan va ularning fikrlari yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

1. Tilshunoslikda ishora birliklari va ularning tasnifi muammolari

1.1. Dunyo va o'zbek tilshunosligida deysis hodisasining o'rganilishi

Bizga ma'lumki, deysis hodisasi (grekcha “deixis” – ko'rsatish, gapirayotgan shaxsga yoki gapirilayotgan paytiga u yoki bu munosabatda bo'lgan predmet, voqea-hodisa, shaxslarni ko'rsatish funksiyasi, vazifasi, ma'nosi) XX asrning II yarmidan boshlab jahon tilshunosligida tilning barcha sathlari doirasida amal qiluvchi universal kategoriya sifatida o'rganila boshlandi. Bungacha deysis hodisasi alohida e'tibor bilan o'rganilmagan. “Deysis” atamasi qadim davrlardan beri ma'lum, lekin uni o'rganish hech qachon grammatika doirasidan chiqmagan. Tilning barcha sohalarida ishtirok etishi mumkinligi aniqlangandan so'ng XX asrning II yarmidan deysis muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtda deysisni lingvistik (tilshunoslik) tushuncha ekanligi masalalari bo'yicha turli fikrlar mavjud. Deysisstil birliklarining kontekst, nutq vaziyati bilan bog'liq pragmatik jihatini o'rganishga e'tibor kuchaygach, deysis muammosi pragmatikaning asosiy tadqiq obyekti sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu muammoni o'rganishga dastlab nemis tilshunosi K. Brugmann (1904-yil) jiddiy e'tibor qaratdi.³ Uning ishlari keyinchalik K. Byuller tomonidan rivojlantirildi. K. Byuller o'zining “Til nazariyasi” nomli kitobida deysisning mohiyati, turlari, deysitik birliklarning vazifasi haqida o'z qarashlarini bayon qildi. Shundan so'ng boshqa ko'plab tilshunoslarning ushbu sohada faoliyat olib borganligi deysis hodisasining tilshunoslikda ahamiyatli va dolzarb masala, hodisa ekanligidan dalolat beradi. Deysis nazariyasi yuzasidan olib borilgan ilk tadqiqotlar ichida J. Layonz, Ch. Pirs, R. Yakobson, I. A. Sternin, I. V. Shmatova, Yu. D. Aspersyan, Stefen Levinsonlarning ishlari alohida o'rin tutadi. Ularning ishlarida tilning deysitik birliklari kontekst bilan bog'liq ravishda o'rganilib, pragmatik tadqiq obyektiga aylantirildi. Bu qarash deysis muammosi tahlili yuzasidan olib borilgan keying yillardagi tadqiqot ishlarida ham rivojlantirildi. Ayni paytda bu yo'nalishda o'zbek tilshunos olimlari ham faol qatnashib, o'z izlanishlari bilan fanimiz rivojiga

³Сафаров Ш. Прагмалингвистика “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008 – 156.

katta hissa qo'shmoqdalar. Shunday olimlar sirasiga Shahriyor Safarov, D. Lutfullayeva, R. Davlatova, M. Qurbonova va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Deyksisning umumiyligi shundaki, hech qanday so'zlashuv jarayonini deyktik birliklarsiztasavvur qilish qiyin, chunki, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi jarayon zamon va makonsiz amalga oshirilmaydi. Bu antologik toifalar ("subyekt", "kenglik", "zamon") mazmuni odam haqidagi tasavvurga ega. Shuning uchun zamonaviy tilshunoslikda inson omilini til bilan uzviy ravishda o'rganuvchi (antropocentrum) antroposentrizm prinsipi yetakchi o'rinda turadi ("antropo" – odam, "centrum" – markaz). Deyksis o'zida tabiiy va qonuniy til egosentrizmini jamlagan, chunki har bir nutq birinchi navbatda so'lovchini ko'rsatadi. Deyksis kategoriyasi (toifasi) so'zlashuv jarayoniga chuqurroq kirib boruvchi kategoriyalar qatoriga kiradi. Shunday qilib, oxirgi paytlarda tilshunoslar "matnli deyksis" tushunchasiga murojaat qilishdi, chunki matn aloqaning muhim birligi hisoblanadi. Murakkab sintaktik tuzilma bo'lgan matn tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni deyktik birliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Deyktik birliklar ishora birliklari bo'lib, matn semantik qurilishida o'ziga xos o'rin tutadi. Har qanday matnning obyektiv mazmunida voqelik yuz bergan makon, zamon va voqelik ishtirokchilariga ishora mavjud bo'ladi. Shunga ko'ra ayrim manbalarda, deyksisni "nutqning o'ziga xos tabiiy mavjudligi" deb qarashadi. Deyksisni yuzaga keltiruvchi vositalar ichida matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi birliklar alohida ahamiyatga ega. Mazkur birliklar tilshunoslikda R. Lakoff, Ch. Fillmor va Sh. Safarovlar tomonidan diskurs deyksisi, D.A. Akselrud tomonidan tekst deyksisi, K. Byuller tomonidan kontekst deyksisi terminlari bilan nomlangan. Diskurs "fransuzcha "discours" – nutq, so'zlash, izchil bayon, suhbat, so'zlashuv ma'nosini anglatsa-da, A. I. Gorshkov diskurs so'zi "matnning qismi" ma'nosida qo'llanuvchi termin bo'la olishi mumkinligini qayd etadi. Biroq, ayrim tadqiqotlarda "diskurs" termini matn termini bilan sinonimik tarzda qo'llanishini, "kontekst" termini esa so'z birikmasi va gap sifatida ham tushunilishi mumkin. Yuqoridagi qo'llanishlarning (diskurs, kontekst) barchasida ham matn tarkibiy

qismlari nazarda tutilgan. Matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi deytik birliklar nutq parchalarining yoki tuzilma tarkibining uzviy bog'liqligini, uning mazmunan yaxlitligini ta'minlovchi zanjir vazifasini bajaradi. Bu birliklar matning muayyan qismiga ishora qilish bilan deytik xususiyatini namoyon etadi hamda tarkibiy qismlar o'rtasida sintaktik aloqani o'rnatib, bog'lovchilik vazifasini ham bajaradi. Mazkur deytik birliklar matn tarkibiy qismlarini mazmunan bog'lash bilan birga, matn tuzilishidagi izchillikni ta'minlash, matnda aks etgan axborotga tinglovchi diqqatini jalb qilish maqsadlarini yuzaga chiqarishda ham faol qo'llanadi. Bunday deytik birliklar vazifasida o'zbek tilidagi ayrim olmosh va olmoshli qurilmalar, ba'zi mustaqil (son, ravish) va yordamchi so'zlar, kirish qurilmalar, ayrim so'z birliklari va gaplar qo'llana oladi. Bu birliklar o'zi qo'llangan gapdan oldingi yoki keying qismga ishora qilib, deytik xususiyat kasb etadi. Matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi morfodeytik birliklarning ishora yo'nalishiga ko'ra quyidagi turlarini ajratish mumkin:

- a) matnda oldingi tarkibiy qismga ishora qiluvchi deytik birliklar;
- b) matnda keying tarkibiy qismga ishora qiluvchi deytik birliklar;
- c) matnda oldingi va keying qismga ishora qiluvchi deytik birliklar.

Buni quyida deytik xususiyatga ega bo'lgan ayrim mustaqil so'z turkumlari misolida tahlil qilamiz. Nutqiy muloqotda deytik xususiyatga ega bo'lgan o'zbek tilining morfologik birliklaridan biri olmoshlardir. Ma'lumki, tilshunoslikda olmoshlarning shaxs va predmetga ishora qiluvchi asosiy deytik birlik sifatida qo'llanishi qator ilmiy taqiqotlarda qayd etilgan. Ammo olmoshlar matn tarkibiy qismlariga ishora qilish jihatidan ham xarakterlidir. Mazkur holda olmoshlar matnda oldingi va keyingi tarkibiy qismga ishora qiladi. Bunday qo'llanish nutqda tilning tejash va ortiqchalik tamoyili asosida yuz beradi. Masalan, - Ustingizdan arz qilaman! – Marhamat! **Bu** – sizning huquqingiz. (O'. Hoshimov). Ushbu matn parchasida qo'llangan "bu" olmoshi matnning oldingi tarkibiy qismiga ishora qilib, deytik xususiyat kasb etgan. "Bu" olmoshi "Ustingizdan arz qilaman" gapi

o'rnida qo'llanib, so'zlovchini ortiqcha takrardan saqlagan. Ushbu holat matn tarkibida tejash tamoyilining amal qilganligini ko'rsatadi. Quyidagi gapda esa olmosh deytik birlik sifatida matnning keying tarkibiy qismiga ishora qilgan: Uning aytishicha, voqea **shunday** bo'lgan. Yon qo'shnisining aqli noqisroq o'n olti yashar qizini davolatish uchun bir malakali doktor taklif qiladi. Ushbu mikromatndagi "shunday" olmoshi matnning keying qismiga ishora qilgan. So'zlovchi matnda voqelikni to'g'ridan-to'g'ri bayon qilmay, uni ishora orqali sharhlagan. Bu holat nutqiy ortiqchalikka sabab bo'lgan. O'zbek tilida keyin, so'ng, avval ravishlarini ham matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi deytik birlik sifatida qayd etish mumkin. Mazkur ravishlar matnda oldingi qismga ishora qilib, matn qismlaridan anglashilgan voqeliklarning ketma-ketligini ifodalaydi, matning mazmunan yaxlitligiga xizmat qiladi. Masalan: "Davlatbekov Oyko'lni aylanib, tomlarda quritilayotgan va g'aram qilinayotgan pichanlarni ko'rib chiqdi. **Keyin** Ortiqqa avtokachkani qo'shtirib kelishni buyurdi". (P. Qodirov). Keltirilgan matn parchasida "keyin" ravishi o'ziishtirok etgan gapda ifodalangan voqelikdan oldin ham muayyan voqelik yuz berganligiga ishora qiladi. Bu, o'z navbatida, matn qismlari o'rtasidagi semantik va sintaktik bog'liqlikka ham xizmat qilgan. Ko'rinadiki, yuqorida qayd etilgan morfologik birliklarning deytik xususiyatlari matn qurshovisiz mavhum bo'lib qoladi. Shunga ko'ra, matn tarkibiy qismlariga ishora qiluvchi har bir deytik birlikni maxsus o'rganish maqsadga muvofiq. Zero, mazkur deytiklar turlicha vahar biri o'ziga xos.

Isroillik professor Yehoshua Bar – Hillel ingliz tilida tuzilgan gaplarning mazmunini qay yo'sinda aniqlash va ular vositasida uzatilayotgan axborotning to'liq anglash muamosi haqida to'xtalib, quyidagi misollarni keltirgan edi:

- 1) Ice floats on water – Muz suvda suzib yuribdi.
- 2) It's raining – Yomg'ir yog'yapti.

3) I am hungry – Och qoldim.⁴

Birinchi gap mazmunini qariyb barcha ingliz tilsohiblari bir xilda tushunishadi, chunki muz qayerda suzayotganligi (suvda) aniq. (Lekin mazmun idrokining keyingi bosqichlarida “Qaysi suvda: daryodami, dengizdami?” kabi savolning tug’ilishi ehtimoldan holi emas. keyingi (2) gapning mazmunini anglash uchun ushbu voqea (yomg’ir yog’ishi) qachon va qayerda kechayotganligini bilish zarur. Yoki bu gap talaffuz etilayotgan vaqt va joyni aniqlash kerak. Shuningdek, (3) gap mazmunining to’liq idroki uni kim va qayerda aytayotgani bilan bog’liq.

Muloqot faoliyati uchun makon va zamon hodisalarining muhimligini unutmaslik kerak. Har bir voqea ma’lum makon va zamonda kechadi hamda u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda sodir bo’lganligini bilishga intiladi. Bundan tashqari, axborotning to’liq idroki uchun, har qanday faoliyat ma’lum shaxs (shaxslar) tomonidan bajarilishi sababli, ushbu faoliyat amalining subyekti haqidagi ma’lumot ham talab qilinadi. Demak, “qachon” va “qayerda” savollari “kim” savolining hamrohligida nutqiy tuzilma mundarijasini belgilaydi. Ideal lisoniy faoliyat nutqiy tuzilmalar tarkibida aynan shu savollarga javob beruvchi birliklarning to’liq tartibda mavjud bo’lishini taqozo etadi. Masalan, “15-avgust 2007-yil soat 17:00da CH 5050 raqamli “Neksiya” rusumli va CH 3737 raqamidagi “Damas” rusumli avtomashinalar Bo’stonsaroy ko’chasida to’qnashganlar” turidagi gapning mazmuni aniq, chunki sodir bo’lgan voqea haqidagi ma’lumot anchagina batafsil: “qachon”, “qayerda”, “kim” yoki “nima” savollariga javob bor. Xuddi shu gapni boshqacha shaklda ham tuzish mumkin: “Kecha kechqurun shu yerda o’sha ikki mashina to’qnashgan”. Ammo bu ikki tuzilma mazmun mundarijasi jihatidan teng emas. Bizningcha, keyingi gapda ifodalanayotgan ma’lumot DAN hodimlarini hech ham qoniqtirmasa kerak. Keyingi gapdagi “kecha”, “kechqurun”, “o’sha”, “shu yerda” birliklarining qo’llanishi voqeaning sodir bo’lishi haqidagi umumlashgan ma’lumotni beradi: qayerdadir qandaydir ikki mashina to’qnashgan. Lekin bu holda makon, zamon va

⁴Ўша асар: 160.

subyekt-obyektlar haqidagi aniq ma'lumotni ola olmaymiz.. Umumlashtirish, kechayotgan hodisalar, predmetlar sifat-xususiyatlari kabilar haqidagi ma'lumotni mujassamlashtirgan holda konseptual qoliplar vositasida idrok etish kognitiv faoliyatning samarasidir. Bunday qoliplar konseptual birliklarning lisoniy voqelanishida o'z aksini topadi. Albatta, tashqi dunyodagi voqealar, predmetlar xususiy ko'rinishdagi belgi, xususiyatlarga egadirlar. Lisoniy tafakkur faoliyatining kognitiv bosqichidan lisoniy voqelanish bosqichiga o'tishda qiyoslash, analiz va sintez amallari muhim rol o'ynaydi. Shu amallar vositasida umumiylik va xususiylik farqlanadi. Shuningdek, kognitiv faoliyat bevosita mavhumlashtirish amalini ham qamrab oladi, chunki ushbu amal umumlashtirishning muhim bosqichini tashkil etib, idrok etilayotgan obyektlarning alohida muhim xususiyatlarini ajratib olib, ularni qiyoslash hamda yagona "mahrajga keltirish" imkonini beradi. Lisoniy tafakkur faoliyati jarayonida kuzatiladigan yana bir amal – tizimlashtirish, tasniflash amalidir. Til ma'lumotni to'plash va uzatishdan tashqari, uni tartibga keltirish vazifasini ham bajarishini unutmasligimiz lozim. Farang faylasufi Lill universitetining professori Noel Mulud (Noel Mouloud) nutqiy birliklar mazmuni ifodasining mantiqiy asosi haqida fikr yuritayotib, "nutqiy ibora ma'lum bir ma'noni oddiygina belgilab, umumlashtirib va ifodalab qolmasdan, balki u (ibora) bularning barchasini qanday tartiblashtirsa, xuddi shu tartibda bajaradi", degan xulosaga kelgan.⁵ Mantiqshunos olimning mazmunning shakllanishi va nutqiy voqelanishi lisoniy tartiblashtirish va umumlashtirish faoliyatlari natijasi ekanligi haqidagi fikri diqqatga sazovordir. Mantiqiy va lisoniy umumlashtirish bir-birini taqozo etadi va yaxlit yo'nalishda kechadi. Mavhumlashtirilib, tartibga keltirilgan tushunchalar umumlashtirilgan holda lisoniy birlikka aylanadi. Bunday umumlashmalar nutqiy faoliyatning mazmundorligini ta'minlab, ma'lum qilinayotgan axborotning uni qabul qiluvchi shaxslar tomonidan idrok qilinishi uchun imkon yaratadilar. Shu asnoda yuqorida keltirilgan "Kecha kechqurun shu yerda o'sha ikki mashina to'qnashgan" shaklidagi tuzilmalar mazmun ifodalash qobiliyatiga egabo'lishadi. Ammo

⁵www.google.ru. Временный дейксис.

semantik struktura jihatidan yetarli darajada to'liq bo'lgan ushbu gapning aniq mazmuni yoki axborot mundariyasi faqat uning ma'lum muloqot muhitida, matn tarkibida qo'llanishi bilan bog'liq. Shuning uchun ham pragmatik nuqtai nazardan olganda, ushbu gapning mazmuni aniq emas. Buning sababi, birinchidan, “kecha”, “kechqurun”, “shu yerda”, “o'sha” bo'laklarining ma'nosi kontekst, matnda qo'llanishi bilan izohlanadi, ikkinchidan esa, har qanday lisoniy struktura ma'lum maqsadni ko'zlab tuziladi. Bu maqsad – nutqiy muloqotdir. Nutq ijodkorlari u yoki bu lisoniy strukturani tuzayotganida uni nutq vaziyatiga moslashtirishga harakat qilishadi, ya'ni “lisoniy tuzilmalar bevosita matn qismlariga “langar” tashlaydilar. Qizig'i shundaki, S. Levinson va boshqa ayrim tilshunoslar lisoniy strukturalarni kontekstdan ayri holda o'rganishga qanchalik harakat qilmasinlar, baribir nutq, matn muhiti “zanjiri”dan chiqish imkonini topa olmadilar. Kontekst qurshovining kuchi, ayniqsa, deyksis hodisasi talqinida yaqqol namoyon bo'ladi:

“Til tizimidagi qator hodisalarni faqatgina ularning yuzma-yuz muloqot sharoitida shakllanishi inobatga olingandagina tavsiflash mumkin. Bu, ayniqsa, deyksis hodisasi talqinida yaqqol ko'zga tashlanadi” (Lyons 1977: 637-638).

“Til tizimi va kontekst o'rtasidagi bog'liqlikning lisoniy strukturalarda aks etishini yaqqol ko'rsatuvchi yagona hodisa – bu deyksis hodisasidir” (Levinson 1983: 54).

Jon Layonz va Stefen Levinsonlar aslida tilni avtonom, kontekstdan holi tizim sifatida qarash mumkinligi haqidagi fikr tarafdoridirlar. Ular bu fikrni isbotlash uchun deyksis hodisasidan foydalandilar, go'yo, deyksis belgilari qo'llanmaguncha, lisoniy strukturalar alohida tizim sifatida saqlanaveradi. Har qanday hodisaning (bundan lisoniy hodisalar ham istisno emas) bir tomonlamali tahlili natijasida bildiriladigan fikr holisonalikdan yiroqlashib qolish xavfidan ogohmiz. Ma'quli, faoliyat ko'rsatuvchi tizimlar sifatida tasavvur qilishdir. Ularning yaxlitligini ta'minlovchi omil va vositalarni aniqlash borasidagi ilmiy izlanishlarning mahsuli tilshunoslik fani taraqqiyotida o'z o'rnini topadi. Til tizimi va uning nutqiy faollashuvi o'rtasidagi “vositachilik”, “hakamlik” rolini

tilshunoslar bekorga deyksis hodisasiga bag'ishlayotganlari yo'q. Til tizimining o'zi nutqiy faoliyat natijasida mavjuddir, uning tabiati va mohiyati nutqiy muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, til birliklarining ma'no xususiyatlari nutqda voqelanadi, aniq tus oladi. Har bir nutq ijodkori (matn muallifi) voqelikda kechayotgan hodisani o'zicha idrok etadi, uni ma'lum makon, zamon hududida tasavvur qilib, hosil bo'lgan mantiqiy tasavvurga lisoniy libos beradi. Lisoniy voqelanish va mazmun shakllanishi nutq muallifi tanlagan "sanoq boshi", ya'ni kechayotgan hodisani zamon-makon maydoniga joylashtirish bilan bog'liqdir. Demak, nutqiy faoliyatda doimo lisoniy shaklni voqelik bilan bog'lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ehtiyoji tug'iladi. Xuddi shu vazifalar ijrosi deytik vositalar zimmasidadir. "Deyksis" so'zining asl yunoncha ma'nosi "ko'rsatish", "ishora" bo'lib, ilmiy qo'llanishda lison vositasida "voqelikka ishora, ko'rsatish" mazmunini olgan. Ko'rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni **deytik ibora** deb atashadi. Bu iboralarga nisbatan ayrim faylasuf va tilshunoslar **"indeksikallar"** atamasini ham qo'llab kelishmoqda. Ushbu turdagi iboralar nutqiy muloqot tizimi mazmundorligini ta'minlovchi doimiy vositalardan biridir. Masalan, biror bir notanish narsani ko'rib qolib, "Bu nima?" savoli bilan suhbatdoshga murojaat qilinganda, deytik ibora ("bu") vositasida shu muhitda mavjud bo'lgan narsa-predmetga ishoradir. CH. Pirs 1940-yili ko'rsatish olmoshlarini so'z va obyekt o'rtasida aloqa hosil qiladigan qat'iy belgilar, deb atashni taklif etdi. Deyksisni o'rganishni yana bir an'anasi Espersendan boshlanadi. U 1922-yilda ishlatilishi va tushunilishi so'zlovchi va muloqot qatnashchilariga bog'liq bo'lgan til birliklarini **"shifter"** tushunchasi bilan atashni taklif etdi. Deytik elementlar – shifterni oddiy misolidir. Deytik iboralar aslida matndan tashqarida to'liq ma'noga ega emas. "Men hozir bu yerdaman"ga o'xshash iboralarni agar manba so'zlovchi kim, bu ibora qayerda paydo bo'lganini bilmasa, uni to'liq mazmunini tushunolmaydi. Bir necha boshqa atamalardan shunga o'xshash fikrlarni biroz keyinroq A. M. Peshkovskiy, E. Benvenistlar rivojlantirishgan. "Shifter" tushunchasi keyinroq R. Yakobson orqali keng yoyildi.

U o'zining mashhur “ **Shifterlar, fe'l turlari va rus fe'li**”(1957) maqolasida shifter (deyktik) va shifter bo'lmagan grammatik tushunchalarni taqqosladi.

So'nggi paytlarda deyksisni o'rganish faqat nazariy o'rganishdan ko'ra dunyo tillaridagi deyktik vositalarni amaliy har tomonlama o'rganishga suyanmoqda. Har xil tillarning deyktik vositalari bo'yicha ko'p ma'lumotlar yig'ilgan. Shuningdek, U. Byazeman tomonidan tuzilgan “Olmosh tuzilmalari”(1987) to'plamida turli xalqlarning tillari bo'yicha, hattoki, kam o'rganilgan Amazonka, Yangi Gvineya va Afrika xalqlari tillari bo'yicha ma'lumotlar yig'ilgan. Olmoshlar asosiy deyktik vositalar bo'lgani uchun deyktik mexanizmlarni o'rganish uchun ilmiy poligon (hudud) bo'lib xizmat qiladi. Ba'zida, semantik farazlarda deyktik iboralar matnga qaram bo'lmagan, “normal” til birliklaridan farq qiladigan ekzotik deyktik iboralar sifatida qaraladi. Haqiqatda esa, ko'pgina til birliklari deyktik komponentlarga ega. Masalan, ingliz tilidagi come (kelmoq) va go (ketmoq) fe'llari ma'nosiga ko'ra deyktik hisoblanadi. “Come to X” (“Xga kelmoq”) iborasi tasvirlanayotgan voqea paytida yoki gapirilayotgan paytda so'zlovchi X joyda bo'lsa, ishlatilishi mumkin. Yapon tilida “yozdi” ma'nosini anglatuvchi “kaite” fe'lini “Men talabaga xat yozdim” ga o'xshash gaplarda ishlatish mumkin, lekin, “Talaba menga xat yozdi” gapida ishlatib bo'lmaydi – bunday sharoitda deyktik fe'l qo'shishga to'g'ri keladi. Masalan, “kaite kureta” so'zma-so'z tarjima qilinganda, “yozdi, menga berdi” bo'ladi. Deyktik bo'lmagan ba'zi bir iboralar deyktik bo'lib qo'llanishi mumkin. Masalan, “yonimda(ga)” so'zini “yonimda(ga)” iborasida. Deyktik iboralar va deyktik elementlar inson tilining asosiy va umumiy elementlaridan biri hisoblanadi. Har bir semantik tasavvurda alohida deyktik elementlarni ajratish taklifi M. B. Bergelson va A. E. Kibrikka tegishlidir.

Deyksis tadqiqiga bag'ishlangan qator ishlarda deyktik birliklarning ishora obyektini ko'rsatish belgisi asosida ko'p hollarda shaxs deyksisi, zamon deyksisi va makon deyksisi farqlanadi. Ba'zi ishlarda shaxs, zamon va makon deyksislari qatorida me'yoriy holat, baho, emotsional, diskurs, sotsial deyksislar, denotativ va

xronotopik deyksis xususida ham fikr yuritiladi. Tilshunoslikda deyksisning ifodalanish usullari ham farqlanadi. O. N. Veselkova deyksisning birlamchi (pervichniy), ikkilamchi (vtorichniy) hamda anaforik usullarda ifodalanishini qayd etadi. Ayrim manbalarda deyksisning kataforik usullarda ham ifodalanishi ko'rsatiladi. Deyktik iboralar bolalar nutqi rivojining dastlabki bosqichlaridayoq paydo bo'ladi. Psixolingvistlarning kuzatishlari guvohlik berishicha, 3-7 yoshdagi bolalar nutqi, birinchidan, egosentrik bo'lsa, ikkinchidan, telegraf uslubida, ya'ni "grammatikasiz" tartibda yuzaga keladi. Shu sababli bo'lsa kerakki, go'daklar grammatik shakllardan ko'ra "men", "sen", "u yerda", "mana", "bu", "hozir", "keyin" kabi iboralarni ma'qul ko'radilar. Bunday iboralarning lisoniy qobiliyat shakllanishining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lishiga yana bir sababni ushbu iboralarning ma'no xususiyatlari bilan bog'liq deb hisoblash tarafdorimiz. Bertrand Rassel "men", "bu", "shu yerda", "hozir" so'zlarini asosiy egosentrik so'zlar sifatida ta'riflab, ularning ma'nosi zamon va makon o'zgarishi bilan bog'liq holda o'zgarib turishini e'tirof etgan: "shu yerda so'zi, "men"ning har bir harakati natijasida joy oladigan alohida o'rnini belgilaydi; "men" uni talaffuz qilayotgan har qanday shaxsni bildiradi". O'z ustoziga ergashgan L. Vitgenshteynning ta'rifi ham shunga mos: "men" – biror bir shaxsning nomlanishi emas, "shu yerda" – ma'lum bir joyni atamaydi, "bu" – nom emas". O'zbek tilshunoslaridan D. Lutfullayeva va M. Qurbonova "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 2013-yil 6-sonida "Bolalar nutqiga xos deyktik birliklarning fonopragmatik talqini" sarlavhasi ostida maqola e'lon qildilar. Ushbu maqolada deyksis til birliklarining funksional xususiyati to'g'risida, bu birliklarning bola nutqida shakllanishi, rivojlanib borishi, o'ziga xos tarzda qo'llanilishi, kattalarning ta'siri ostida bolalar nutqida qo'llanadigan ayrim deyktik birliklarning fonetik o'zgarishga uchragan hollari xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tadilar. Deyksis til birliklarining funksional xususiyatini aks ettiruvchi barcha tillarga xos universal hodisa hisoblanishini, uning asosiy mohiyati tilning verbal va noverbal vositalari yordamida voqelik va uning elementlariga ishora qilish ekanligini ta'kidlaydi. O. G. Bondarenkoning qayd etishicha, deyksis tilda aks etuvchi voqelikning bo'lagi,

ya'ni vaziyat komponentlariga ishora qiluvchi hodisa bo'lib, ishora komponentlari, asosan, kommunikativ, ular muloqot qilgan vaqt va o'rin bo'lgani sababli deysisning turlari ham personal, lokativ va temporal hisoblanishi lozim. Darhaqiqat, har qanday nutq jarayoni muloqot egalari ishtirokida muayyan makon va zamonda amalga oshiriladi. Bu jihatdan barcha tillarda personal (shaxs) deysisi, lokativ (makon) deysisi va temporal (zamon) deysisining farqlanishi asoslidir. Deysisning ajratilgan bu turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, barcha tillarda maxsus ifoda vositalari bilan farqlanadi. Deysis turlari ichida shaxs deysisi ancha keng qamrovli bo'lib, nutqda turli birliklar orqali namoyon bo'ladi. Shaxs deysisini ifodalovchi deysitik birliklar, ayniqsa, bolalar nutqida o'ziga xos shakllarda qo'llanish shakliga ega. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bolalar nutqida qo'llanuvchi shaxs deysisini ifodalovchi ayrim deysitik birliklar ishoraviy vazifasidan tashqari, ba'zan konnotativ ma'noni hosil qilish, nutq subyektining voqelikka bo'lgan baho munosabatini ifoda etish kabi vazifalarni ham bajaradi. Shu jihatdan bolalar nutqidagi deysitik birliklar tahlilida nutq subyektiga xos ijtimoiy, psixologik xususiyatlar, xususan, uning yosh jihatiga jiddiy e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Ma'lumki, filogenez va ontogenez davrida bola kundalik hayotda faol qo'llanadigan deysitik birliklarni muntazam ravishda o'rganib boradi. Bu esa bolada lisoniy ijtimoiylashuv jarayonining takomillashib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, nutqiy muloqotning shakllanish va rivojlanish bosqichlarida eshitish sezgisi orqali idrok etilgan deysitik birliklardan foydalanish jarayonida o'ziga xos nutqiy vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayon bilan bog'liq lingvopragmatik xususiyatlarni tadqiq etish bolalarda kognitiv faoliyatning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun nihoyatda dolzarbdir. Chunki bolalar nutqiga xos ayrim psixolingvistik va sotsiopragmatik xususiyatlar ular tomonidan deysitik birliklarning qay yo'sinda ifoda etilishiga bog'liq bo'ladi. Aksariyat hollarda bolalar nutqida qo'llanadigan deysitik birliklar kognitiv imkoniyatlar bilan bog'liq tarzda shakllansa-da, kattalar talqinida pragmasemantik xususiyat kasb etishi mumkin. Bu holat bolalar tomonidan, ayniqsa, shaxs deysisining ifodalanish jarayonida aniq ko'zga tashlanadi. Jahon tilshunosligida bolalar nutqida

qo'llanuvchi deytik birliklarning pragmatik jihatlari o'rganilgan. Mazkur yo'nalishga doir adabiyotlarda bolalar tomonidan deytik birliklarning o'zlashtirish bosqichlari belgilanib, ular nutqida ishora birliklarining ifodalanishi bilan bog'liq muammoli masalalar izchil tahlil qilingan. Bu boradagi yondashuvlar, albatta, har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan farqlanishi tabiiy. O'zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda deyksis hodisasini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Bu muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlarida deytik birliklarning pragmatik xususiyatlari muayyan darajada tahlil etildi. Biroq, hozirgi kunda o'zbek bolalar nutqiga xos deytik birliklarning pragmatik xususiyatlari muammosi maxsus tekshirishni talab etadi. Ma'lumki, bolalar nutqida kuzatiladigan ayrim ishora birliklari o'ziga xosligi bilan kattalar nutqida qo'llanuvchi deytik birliklardan ajralib turadi. Bu holat ular tomonidan, ayniqsa, shaxs deyksisining ifodalanishi jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar nutqida shaxs deyksisini ifodalashga xizmat qiluvchi ayrim deytik birliklar fonetik jihatdan jiddiy farqlanadi. Bolalar nutqiga xos deytik birliklarning fonopragmatik xususiyat kasb etishi quyidagi hollarda kuzatiladi:

1. Bolalar nutqiga xos ayrim deytik birliklarda psixologik omillar ta'siridatovush o'zgarishi hodisasining yuz berishi. Deytik birlikda tovush o'zgarishi ko'pincha bolalarning erkanib gapirishi yoki so'z tarkibidagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmasligi, ularning o'rnini almashtirib qo'llashi natijasida yuz beradi. Masalan, ayrim bolalar nutqida Dilorom atoqli otining Diloyam, Dirolam shakllarida ifoda etilishini kuzatish mumkin. Birinchi holatda bolaning "r" tovushini talaffuz qila olmasligi deytik birlikda tovush o'zgarishiga sababchi bo'lsa, keying holatda kontakt metateza hodisasi natijasida fonetik o'zgarishlar kattalar uchun qiziqarli tuyulishi bilan pragmasemantik qimmatga ega bo'ladi.

2. Bolalarning kattalar ta'sirida ayrim deytik birliklarni fonetik o'zgarishga uchragan holda o'zlashtirishi. Ba'zan kattalar muayyan ishora birligini go'yo bola nutqiga "moslashtirgan" holda fonetik jihatdan o'zgartirib bolalarga o'rgatadilar. Bu holat deytik birliklarning bolalar tomonidan fonetik o'zgarishga uchragan holda o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. Masalan, Toshkent shevasida "amaki" deytik birligi bola nutqida "amaqi" tarzida ifoda etiladi. Albatta, kichik yoshdagi bola ham bu so'zni me'yoriy holatda ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Biroq bola kattalar nutqida qo'llangan "amaqi" deytik birligini uzual so'z sifatida qabul qiladi va xotirasida shu tarzda saqlab qoladi.

Ba'zan ayrim katta yoshdagi kishilar nutqida ham deytik birliklarning fonetik o'zgarishga uchragan shakllari qo'llanadi. Bu holat kattalar kommunikativ faoliyatida ongli ravishda kechadi, ya'ni, katta yoshli adresant nome'yoriy shakldagi deytik birlik yordamida nutqiy ta'sirchanlikni oshirish maqsadini ko'zda tutadi. Ma'lumki, deytik belgilarning ma'no xusuiyatlari boshqa nominativ belgilarnikidan tubdan farq qiladi. Ular voqelikdagi predmet-hodisalarni bevosita atamasdan, balki predmet, hodisa, shaxslarning nutq vaziyatiga nisbatan "joylashuvi"ni ko'rsatadi. Bunday ko'rsatish muloqot ishtirokchilari (so'zlovchi va tinglovchi) predmet va shaxslarning egallagan o'rnini (bu o'rin nutq subyektlariga nisbatan belgilanadi) hamda muloqot kechayotgan vaqt kabilarni qamrab oladi. Shu xususiyatlariga binoan deytik iboralar bilvosita ma'noga ega lisoniy belgilar sifatida qaraladilar. Go'daklar talaffuz qiladigan so'zlar ham, odatda, bevosita referentga ega emas, ular vositasida aniq predmet yoki hodisa nomlanmaydi. Go'dak yagona bir so'z bilan butun bir kechayotgan hodisani yoki hodisalar qatorini ifodalashga qodir.

1.1. Deytik birliklar tasnifi

Nutqiy harakat koordinatalarining qaysi biri ko'rsatilishiga ko'ra deytik birliklar turli guruhlariga ajratiladi. Ilk tasniflar morfologik tamoyilga asoslangan bo'lib, ularda shaxs olmoshlari "men-sen-boshqa(u)" deytik guruhlariga

taqsimlangan. Nemis tilshunosi Karl Brugmanning ushbu morfologik tasnifini keyinchalik Karl Byuller qayta ko'rib chiqib, guruhlar soni va tarkibini nutqiy muloqot vaziyatining boshqa qismlari hisobidan kengaytirdi. Til tizimi tahlili nazariy asoslari bilan shug'ullanishga qiziqqan ushbu psixolog olim 1936-yilda e'lon qilingan "Tilining struktur modeli" nomli maqolasida "Til nazariyasi nutq vaziyati tahliliga tayanmog'i shart va lozimmi?" degan savolga tasdiq javobining dalillarini izlaydi.⁶ U har qanday tilda ko'rsatish (ishora) maydoni mavjudligini va bu maydon uchun "xizmat" qiluvchi "ko'rsatkich-so'zlar" guruhlarini borligini qayd qiladi. Bu so'zlar egallangan o'ringa ishora (hier, da, dort – bu yerda, shu yerda, u yerda) va shaxslar ishtirokini ko'rsatuvchilar (ich, du, er – men, sen, u) turlariga bo'linadi. Haqiqatda ham K. Byuller aytganidek, "aniq nutqiy vaziyat tahliliga tayanmasdan turib, qanday boshqa yo'sinda barcha ko'rsatish so'zlarining vazifalarini aniqlash mumkin?" . Muallif "Til nazariyasi" asarida deysis hodisasining mohiyati haqidagi o'z ilmiy qarashlarini jamlab, ushbu hodisaning til qurilishi va nutqiy muloqot tizimida tutgan o'rni, bajaradigan vazifalarini yanada aniqlashtirishga harakat qilgan. Deyktik iboralarni guruhlashda u nutqiy muloqot maydonining asosiy belgilovchi "o'q"lari so'zlovchi-tinglovchi munosabati (Ich-Du deixis – Men-sen deysisi), predmet yoki shaxsning nutq subyektiga nisbatan egallagan o'rni (hier-dort deixis – bu yerda-u yerda deysisi) va nutqiy akt vaqti (jetzt – den deixis – hozir-o'sha paytda deysisi) farqlariga tayanishni tavsiya qiladi. K. Byuller aynan shu kitobida ko'rsatish obyektining farqlanishiga nisbatan deysis iboralarni yana o'zgacha uch turga ajratish mumkinligini ham qayd etadi:

- 1) ko'rinib turgan obyektga ishora (demonstration ad oculus): so'zlovchi o'z ko'zi bilan ko'rib turgan obyektga ko'rsatish vazifasini bajaruvchi lisoniy belgilar;
- 2) kontekst deysisi, ya'ni matnda oldingi o'rinlarda qo'llangan so'zlarga ishora;

⁶Бюлер К. Структурная модель языка. В кн.:Звегинцев В. А. История языкознания XIXи XX веков в очерках и извлечениях, ч.2. –М.: Учпедгиз, 1960. – с. 27-36.

3) tasavvur deyksisi (deixis an pleantasma), ya'ni so'zlovchi bevosita ko'rmayotgan va matnda eslatilmagan, ammo so'zlovchilar uchun ma'lum bo'lgan predmetga ishora.

Charlz Fillmor Indiana univesiteti lingvistik klubida 1971-yilda o'qigan deyksis haqidagi ma'ruzasida deyktik iboralar nutqda qo'llanishini uch turga bo'lishni taklif qilgan:

- 1) “uzoqdagi” va “yaqindagi” obyektни bevosita ko'rsatish vazifasini bajaruvchi lisoniy belgi jestlar (gestural use);
- 2) Ma'lum axborot, bilim tashuvchisi (bu bilim ushbu muloqot vaziyatidan yoki mustaqil ravishda egallangan bo'lishi mumkin) bo'lgan ramziy belgi (symbolic use);
- 3) Anaforik bog'lovchi sifatida.

Deyktik belgilar tasnifi masalasi uzluksiz muhokama qilinib kelinmoqda. Ko'pchilik tilshunoslar an'anaga binoan shaxs, makon va zamon deyksislarini farqlab kelishmoqda. Ammo ayrim tilshunoslar bunday tasnifga unchalik qo'shilmaydilar. Ular, deyksis va modallik hodisalarini yagona maydonga biriktirish harakatida bo'lishib, modal deyksisini alohida o'rganishni taklif qilishmoqda. Modal deyksisi vositasida so'zlovchi mavjud va tasavvurdagi vaziyatlarni nisbatan baholaydi. Sotsial (ijtimoiy) deyksisini alohida kategoriya sifatida ajratish va uning vositasida muloqot ishtirokchilarining bir-biriga nisbatan ijtimoiy mavqeini belgilashi imkoniyatlari haqida oldingi bobda gapirildi. Bundan tashqari, Ch. Fillmor, R. Lakoff, V. I. Shaxovskiy, A. V. Kravchenko kabi olimlar, muloqot matnida suhbatdoshlarning xususiy munosabatlari o'z aksini topishini hisobga olib, emotsional deyksisni ham alohida o'rganish g'oyasini targ'ib qilishmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda sekin-asta deyktik toifalar ishlatilishiga qarab tillarni turlash shakllanmoqda. S. Levinson yozma aloqada qaysi vaqt (zamon) asos qilib olingani – ma'lumotni yaratilish vaqti yoki ma'lumotni olingan vaqtiga qarab tillarni ikki turini qarama-qarshi qo'yadi. Bir xillari quyidagi iboralarga og'ishadi: Men buni bugun yozyapman, sen uni ertaga olasan;

boshqalari quyidagicha iboralarga: men buni kecha yozdim, sen uni bugun o'qiyapsan. Ba'zi tillarning deytik sistemalari mukammal o'rganilgan. L. Grenobl (1998) ishlarida rus tilining deytik sistemasi tasvirlab berilgan. Bu ishning I, II qismlarida rus deytik vositalari to'liq tasvirlab berilgan, shu bilan birga, deytis haqidagi zamonaviy tasavvurga kirish qismi ham. Shu paytgacha gap - deytisning asosi, ya'ni birlamchi deytis haqida borgan edi. Mustaqil bo'lgan, birlamchi deytisga munosabatan yaratilgan uch xil ko'rinishlar mavjud: ikkilamchi deytis, anafora va matnli deytis. Fikrdagi subyekt hayol bilan ko'chiriladigan alternativ deytik markazlar nutqda yaratilishi mumkin va shunda ikkilamchi deytis hodisasi paydo bo'ladi. Iborani ko'rib chiqamiz: Xo'jayinlarning hayron bo'lgan yuzlarini ko'rib, Ivan, uni bu yerda kutishmaganini tushundi. O'zlashtirma gapni ifodalagan "uni bu yerda kutishmaganini" ergashgan gapida uchta deytik element bor – uni, bu yerda va "hozirgi zamon" – ular hayoliy deytik markazga asoslangan. I shaxs olmoshi "meni" bunday holatlarda III shaxs olmoshi bilan almashadi, makon va zamon deytik birliklari o'zgarmay qola oladi. Ushbu misolda shaxs, makon va zamonning uyg'unligini ko'rishiiz mumkin. Bunday ko'rinishlarni Y. B. Paducheva (1996) "birikishning narrativ tartibi" deb ataydi. Deytik markazning ko'chirilishi grammatikalashtirilgan bo'lishi mumkin. Yu. D. Aspersyan (1986) deytik elementlarni leksikada keng ko'lamdagi til birliklari sifatida o'rgandi va ularni tasvirlash (izohlash) uchun "kuzatuvchi" tushunchasini kiritdi. Masalan, "Yo'lda men ko'rindim" deyish g'alati bo'lardi. Chunki "ko'rinmoq" fe'lining ma'nosi kuzatilayotgandan alohida masofada bo'lgan kuzatuvchi fikrini o'zida mujassam etgan. Ikkilamchi deytis hodisasini o'rganish uzoq tarixga ega. Xususan, ular V. N. Voloshin tomonidan mukammal tasvirlangan. Ma'lumki, deytik qo'llanishga loyiq vositalarning ko'pchiligi, anaforik tarzda ham qo'llanishi mumkin. Anafora – so'zlovchi va tinglovchining xotirasida faollashgan referentlarni eslash(ishlatish)dir. III shaxs olmoshlarini anaforik ishlatishda so'zlovchi ko'proq gapirilayotgan referent avvalgi iborada ishlatilganligiga tayanadi. Deytik elementlarni ikkilamchi anaforik qo'llash, inson xotirasini ko'rinib turgan so'zlashuv jarayonini jismoniy muhitga o'xshatish

metaforasiga asoslangan. Anafora tushunchasi, birinchi navbatda, otli guruhlarni qo'llash bilan bog'liq bo'lsa ham, aslida bunday ko'chirish jarayoni boshqa til birliklari turlari bilan ham sodir bo'ladi. Masalan, ravishlar. Taqqoslab ko'ramiz: "Vasya, men sezyapman, xazina qayerdadir shu yerda joylashgan(so'zlovchining yaqinida)". "Yosh yigitlar sezishardiki, xazina shu yaqin atrofda joylashgan (faollashgan referent yonida, ya'ni, "yosh yigitlar")". J. Layonz tomonidan taklif etilgan deytik va anaforik mehanizmlarni taqqoslash ham ma'lum. Faqatgina o'ta maxsuslashgan deytik elementlar "men", "sen", "shu yerda", "hozir" anaforik tarzda ishlatilmaydi. Ye. V. Paducheva I va II shaxs olmoshlarining bu xususiyatini "deytik elementlarning majburiy sharti" deya ta'riflaydi (ya'ni, ularning o'rnida to'liq otlashgan guruhlar bo'la olmaydi). Shunga qaramay, I, II shaxs ko'plik olmoshlari anaforik jihatlariga ega bo'lishi mumkin. Bu, masalan, "biz" olmoshiga tegishli. Bu olmosh so'zlovchi va yana kimnidir, uchinchi shaxsni ifodalaydi. "Masha rozilik berdi, biz yaqinda turmush quramiz" kabi iborada "biz" olmoshi bir vaqtda ham deytik, ham anaforik xususiyatga ega. Deytik vositalar qatoriga kiruvchi so'zlarning leksik ma'nosida u yoki bu turdagi referentga ishora mavjudligini isbotlashga harakat qilgan E. V. Paduchevaning ta'rificha, "olmoshlar – ma'nosida nutqiy harakatga havola yoki nutqiy tuzilmaning borliq bilan munosabatiga, turiga ishora mavjud bo'lgan so'zlardir". Olmoshlarning va boshqa turdosh turdagi deytik belgilarning signifikativ mazmundan holi ekanligini, ularning referenti turg'un bo'lmasdan, balki, nutq vaziyatiga nisbatan o'zgarib turishini Emil Benvenist alohida qayd etgan. Uningcha, "Men" olmoshi ma'nosini faqatgina ma'lm bir nutqiy harakat ijrosiga (locution) nisbatan aniqlash mumkin va bu nutqiy harakat doimo yagona, alohida bo'lib qoladi, takrorlanmaydi. Har bir nutqiy harakat alohida obyekt (voqelikdagi hodisa, predmet) bilan bog'liq bo'lganligi sababli, "men" olmoshining referenti ham o'zgarib turadi. Qisqasi, "men" shakli lisoniy nuqtai nazardan faqatgina bajarilayotgan, ijro etilayotgan nutqiy harakatda mavjuddir. Farang tilshunosi shaxs, zamon, makon, ishora qilinayotgan obyekt ko'rsatkichlarining nutq kechayotgan vaqt bilan munosabatini men: bu yerda – u yerda; hozir – o'shanda; bugun – o'sha kuni – kecha; arafada –

ertaga – bir kundanso'ng kabi tushunchalar qarama-qarshiligida yuzaga keladigan hodisa deb hisoblaydi. Ammo ushbu turdagi iboralarning referenti ko'pincha o'ta yuzaki – o'z-o'zidan ma'lum bo'lgan hodisa sifatida baholab kelinmoqda. Ushbu iboralarning ma'no xususiyatlari to'g'ridan-to'g'ri “voqelik” yoki predmet-hodisalarning obyekti zamon va makonda joy olishi bilan bog'liq emas. Aksincha, til tizimi ushbu ibora guruhlariga shaxslararo muloqot jarayonida yuzaga keladigan talab – vazifalarni bajarishni “buyuradi”. “Lison voqelik bilan referent bog'liqligidan mahrum bo'lgan, doimo yangicha qo'llanishga hozir bo'lgan “ma'nosiz” belgilar yaratilishi bilan bu masalani ham hal qiladi va bu belgilar so'zlovchi tomonidan kechayotgan nutq faoliyatiga jalb qilinishi zahotiyoq “to'liq” belgilarga aylanadilar”. Deyktik iboralar ma'nosining nutq subyekti – so'zlovchining kommunikativ maqsadi bilan bogliq holda o'zgarib borishini o'zvaqtida faylasuflar ham qayd etgan edilar. Bertrand Russell “men”, “bu”, “shu yerda”, “hozir” so'zlarini asosiy egosentrik so'zlar sifatida ta'riflab, ularning ma'nosi zamon va makon o'zgarishi bilan bog'liq holda o'zgarib turishini e'tirof qilgan: “hozir” so'zi har bir qo'llanishda vaqt kechishi davomiyligining ma'lum bir darajasini anglatadi; “shu yerda” so'zi, “men”ning har bir harakati natijasida joy oladigan alohida o'rnini belgilaydi; “men” uni talaffuz qilayotgan har qanday shaxsni bildiradi”. O'z ustoziga ergashgan L. Vitgenshteynning ta'riflari ham shunga mos: “Men” - biror bir shaxsning nomlanishi emas, “shu yerda” - ma'lum bir joyni atamaydi, “bu” - nom emas. Shuning bilan bir qatorda, ayrim tadqiqotchilar deyxsisning egosentrik xususiyatini to'lig'icha e'tirof etishga jur'at etmaydilar. V. Shmidt, G. Raux, I. A. Sternin va boshqalar deytik maydon markazini “sen/siz”, ya'ni adresat egallashi mumkinligini aytishadi. Binobarin, “Bir qadam oldinga!”, “O'ngga buriling!” kabi buyruq nutqiy aktlari bajarilayotgan vaqtlarda asosiy e'tibor buyruqni qabul qiluvchiga yo'naltiriladi. B. Russell ishlarida esa barcha turdagi egosentrik so'zlarning (egocentric words) ko'rsatish mazmunidagi ma'nosini this “bu, shu” olmoshi vositasida tavsiflash mumkin, degan fikr mavjud.. Uning fikricha, I “Men” the biography to which this belongs “bu qaram bo'lgan tarjimai hol” mazmunini bildirsam, here “bu yerda” – the place of this

“buning o’rni” va now “hozir” the time of this “buning vaqti” mazmunlariga ega. Balki ingliz faylasufining fikri mantiqan to’g’ridir, chunki barcha turdagi deytik iboralar ko’rsatish, ishora ma’nosini ifodalaydilar hamda ko’rsatish maydonining markazida so’zlashuvchi shaxs turishi sababli ishoraning boshlang’ich nuqtasi ham uning “ko’z o’ngi”da turgan voqelik parchasidir. Ushbu voqelikning kommunikativ ifodasida “bu” ko’rsatkichi asosiy o’rinni egallaydi. Ammo mantiqiy mazmunning lisoniy ma’noga muvofiq kelishi har doim ham kuzatilavermaydi. “Ma’no” tushunchasini “obyektning shaxs ongida aks topgan umumlashgan benuqson tasavvurdagi modeli” deb ta’riflagan psixolog V. F. Petrenko bu modelning shakl topishini oddiy faoliyat emasligini qayd etadi: “ong belgilar vositasida voqelikni oddiygina takrorlamasdan, balki undagi subyekt uchun ahamiyatli bo’lgan xususiyat va belgilarni ajratib, umumlashgan model qurilmasini yaratadi”. Demak, lisoniy ma’no shakllanishi – murakkab jarayon. Ma’no shakllanishida voqelikdagi obyektning muhim xususiyat – belgilarining aks topishi oddiy jarayon emas, balki bu xususiyatlar inson ijtimoiy faoliyati, tajribasi nuqtai nazaridan muhim bo’lmog’i darkor. Yanada aniqrog’i, bu muhimlik, ahamiyatlilikning o’zi ijtimoiy tajriba asosida yuzaga keladi.

Lisoniy belgilar ma’nosi shakllanishida inson faoliyati, uning ijtimoiy tajribasi natijalari aks topishi, albatta, predmet mazmunidagi va boshqa to’liq ma’noli so’zlar mazmunida ravshanroq ko’rinadi. Ammo buning bilan boshqa turdagi leksik birliklar (shu jumladan, deytiklar) lug’aviy ma’noga ega emas deb ham bo’lmaydi. Har bir lisoniy birlik, so’zsiz, lug’aviy ma’noga ega. Bundan deytik belgilar, shu jumladan, olmoshlar ham bundan mustasno emas. Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi N. Yu. Shvedova til lug’at tizimining tabaqalanishi daraxt shaklida tus olishini uqtirib, ushbu daraxtning tepasi eng mavhum va umumlashgan (global) ma’no – azmunga intilishini ta’kidlaydi. Umumlashtirilgan tushunchalar harakat yoki holat, harakat turi yoki hol, miqdor, me’yor, makon, zamon, chegara, maqsad, sabab kabilardir. “Tilda ushbu tushunchalar va ularning doimiy o’zgarishlarini doimiy ifodalash uchun mo’ljallangan so’zlarning yopiq tizimi mavjud: olmoshlar guruhi aynan shu sinfga oid”. Ayniqsa, muallifning

keying ishida olmoshlar guruhidagi so'zlar tizimining "yopiqligi" va barcha turdagi umumiy tushunchalarni ifodalashning boshlang'ich nuqtasi ekanligi yanada ta'kidlanadi. Zero, "bu tizimning mavhumlik darajasi boshqa sinflarnikidan o'ta ustun: u (olmoshlar tizimi) boshqa so'zlar ma'nosi va o'zaro muosabatlariga mazmun baxsh etadi. Olmoshlar guruhi – ma'noni mavhumlashtirishni ta'minlovchi vositadir". Shu jihatdan olganda, B. Rasselning barcha turdagi deytik iboralarning mazmunini this "bu" olmoshi vositasida tavsiflash borasidagi harakatini ham to'g'ri anglab, ma'qullash mumkin. Inson borliq idrokining asosiy (balki yagona) me'yor va o'lchov nuqtasidir, bunday idrok jarayoni doimo "antropometrik tamoyil" (Teliya 1988) nazoratida kechadi, u o'zi idrok etayotgan voqelik parchasiga "bu" ko'rsatkichi bilan ishora qiladi. Ammo mantiqshunoslarning deytik iboralarni yagona bir mahrajga to'plash va ularning ma'nosini alohida bir lisoniy birlik vositasida ta'riflash yo'lidagi harakatlari (B. Rassel barcha deytik iboralarni "this"- "bu" olmoshli iboralarga o'zgartirish mumkinligi haqida gapirgan bo'lsa, H. Rayxenbax esa I "men" olmoshi "men" so'zi belgisini talaffuz qilayotgan shaxs" tuzilmasi vositasida tavsiflashni taklif qilgan) tilshunoslarga unchalik ma'qul kelmaganligi ham ma'lum. Lisoniy tahlilni mantiq bilan bog'lashda lisoniy belgilarning tabiati va ularning inson faoliyati uchun muhim bo'lgan nutqiy muloqot matnida tutgan o'rni, mohiyatiga e'tibor bermaslikning imkoni yo'q. Masalan, "Men hozir 26 yoshdaman va o'tgan yili uylanganman" va "Men hozir 27 yoshdaman" tuzilmalarining zaminida bir xil propozitsiya turishi yoki turmasligini aniqlash uchun ushbu tuzilmalar qaysi kontekstda, muloqot sharoitida qo'llanilayotganligini bilmoq kerak. Matn (kontekst) propozitsiyani "maxsuslashtiruvchi", uni voqelantiruvchi vositadir. Pragmatikaning mantiqan semantikani ta'minlashi, undan oldinroq harakatga kelishi ham xuddi shunda namoyon bo'ladi. Deyksis hodisasining pragmatik mohiyatini va uning mazmun ifodalash imkoniyatining bevosita muloqot matni bilan bogliq ekanligini S. Levinson quyidagicha ta'riflaydi:

"Aslini olganda, deyksis tilda nutqiy harakat konteksti yoki nutqiy hodisa xususiyatlarining aks topishi va grammatikalashuviga (grammaticalization)

taalluqlidir. U (deyxis), xuddi shuningdek, muloqot matni tahlili bilan bog'liqdir. Shunga nisbatan this ("bu") olmoshi biror bir real mavjud obyektni atamaydi; to'g'rirog'i, u aniq bir kontekstda so'z yuritilayotgan voqelik obyektining o'rindoshidir".

Ushbu ta'rifda bizning e'tiborimizni alohida jalb qilgan narsa – grammatikallashtirish hodisasidir. Nutqiy tuzilma esa to'liq mazmunga ega bo'lishi uchun grammatik shakl olishi kerak. Shuning bilan birgalikda, nutqiy tuzilmaning muloqot birligiga aylanishi va matndan o'z o'rnini topishi uchun uning grammatik shaklga ega bo'lishi yetarli emas. Ushbu tuzilma matnga mos kelishi, umumiy kommunikativ maqsadga erishish ehtiyojini qondirishi lozim bo'ladi. Xuddi talablar umumlashmasi, grammatikallashtirish hodisasidir. Misol tariqasida "hoy, sen hoziroq o'sha yerga yetib bor!" gapini olaylik. Buyruq intensiyasini hosil qiluvchi ushbu nutqiy aktning pragmatik mazmuni so'lovchi tomonidan shaxs, makon va zamon deytik iboralarini qo'llanishi bilan bog'liq. Bu yerda buyruq yo'naltirilgan shaxs – adresat "sen" shartli belgisi vositasida kodlashtirilgan; "o'sha yerga" shartli belgisi so'zlovchiga nisbatan olingan joy, makonni kodlashtiradi; "hoziroq" esa nutqiy harakat bajarilayotgan paytga nisbatan belgilanayotgan zamontushunchasidir. Bundan tashqari, "yetib bor" bo'lagini ham so'zlovchiga nisbatan olingan makon sari harakatning shartli ifodasi sifatida talqin qilish mumkin. So'zlovchi o'z kommunikativ maqsadiga erishish uchun barcha shartli lisoniy belgilarni jo'yali, o'z o'rnida ishlata olishi darkor. Faqat shundagina u tinglovchini buyruq ijrosiga unday oladi. Xuddi shuningdek, tinglovchi – adresat ham grammatikallashtirish usul va vositalari bilan tanish bo'lgan holdagina nutqiy harakat mazmunini anglaydi, shartli belgilarni mantiqan idrok etadi va ularning sirli, yashirincha ma'no jilolarini ocha oladi. Grammatikallashtirish hodisasining pragmatik tavsif uchun ahamiyatini yana bir misolda ko'rish mumkin. Ingliz faylasufi David Kaplan deytik iboralarining turli nutqiy vaziyatda va turli kontekstda qo'llanishidagi farqini o'rganayotib, "I was insulted yesterday" "Meni kechaxafa qilishdi" nutqiy birligi bugun yoki ertaga aytilishiga nisbatan deytik

ibora(yesterday “kecha” turli mazmun olishiga diqqatni jalb qilmoqchi). Olimnutqiy birlikning ma’lum vaziyatda faollashuvida yuzaga keladigan ma’noni **content** “mazmun” deb ataydi. Bizningcha, u lisoniy birlikka mohiyatan xos bo’lgan ma’noni nazarda tutayotgan bo’lishi kerak. Matndagi mazmun o’z-o’zidan hazm bo’lmaydi, lisoniy birlik uchun tabiatan xos bo’lgan shunday ma’no xususiyatlari mavjudki, ular har bir nutqiy tuzilmaning ma’lum sharoitda, u yoki bu mazmunda voqelanishini ta’minlaydi. D. Kaplan bunday ma’noni “character xususiyatlar mundarijasi, mundarijali ma’no” sifatida qarashni taklif qiladi: “har qanday iboraning mundarijasi lingvistik qonuniyatlar asosida shakllanadi va u (mundarija) nutqiy iboraning kontekstdagi mazmunini belgilaydi”.

Til tizimisiz nutqiy muloqot tizimi hosil bo’lmaydi va, aksincha, nutqsiz til tizimi qayerdan “ozuqa” olishini bilmaydi. Xuddi shuningdek, til tizimida mavjud bo’lgan deytik vositalarning mundarijaviy mazmuni ham nutqiy muloqot jarayonida yaratiladi va namoyon bo’ladi. Deytik iboralarning semantikva tizimiy xususiyatlari o’ziga xosdir. Yuqorida deyksis tizimining egosentrik tartibga ega ekanligi aytilgan edi. Deytik iboralar kommunikativ hodisa – uzatilayotgan axborotning ma’lum qismlarini alohida ta’kidlash, aniqlashtirish uchun xizmat qilishadi.

2. Zamonga ishora qiluvchi birliklar

2.1. Zamon deyksisi va uning ifodalanishi

Deyktik markazni tarkib toptiruvchi qismlari quyidagilardan iborat:

1. Markaziy shaxs – soʻzlovchi;
2. Markaziy vaqt(zamon) – nutqiy harakat ijro etilayotgan vaqt;
3. Markaziy makonsoʻzlovchining nutqiy harakat bajarilayotgan paytdagi oʻrni;
4. Ijtimoiy markaz – soʻzlovchining ijtimoiy mavqei.

Har qanday holatda ham toʻrt oʻlchovli maydon sifatida tasavvur qilinayotgan deyktik maydonning markazida soʻzlovchi shaxs turadi. Kechayotgan hodisa haqidagi axborotni maʼlum qilayotgan shaxs zamon va makonni oʻzi egallagan oʻringa, vaqtga nisbatan belgilaydi. Suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqei ham soʻzlovchiga nisbatan belgilanadi. Voqelikni idrok etayotgan, uning haqida fikr yuritish istagidagi soʻzlovchi masofa oʻlchovini oʻzidan boshlaydi va voqea makonlari joylashuvini aniqlaydi. Vaqt oʻlchovi ham soʻzlovchidan boshlanadi, maʼlum qilinayotgan voqea qismlarining “vaqt chizigʻi”dagi joylashuvining mantiqiy modeli soʻzlovchi tasavvurida qayta ishlanib, lisoniy tus oladi. Boshqacha aytganda, voqeaning oʻtgan, hozirgi, kelgusi zamonda kechishini, (kechganligi, kechayotganligini) belgilashda soʻzlovchining mantiqiy tafakkur faoliyati muhim oʻrin tutadi.

Maʼlumki, barcha voqea-hodisalar aniq makon va zamonda kechadi, ammo inson tajribasida uning lisoniy faoliyatida markaziy oʻrinni egallaydigan ushbu konseptlar mohiyatiga boʻlgan munosabat bir xil emas. Masalan, Amerika, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda “vaqt (zamon)” tushunchasining mohiyati turlicha talqin qilinadi. Amerikada (hamma narsa boylik orttirishga jamiyatda) vaqt – qimmatbaho tovar, foyda olish ilinjida boʻlsangiz, shoshiling, vaqt orqasidan quving. Amerikalik uchun oʻtgan zamon yoʻq, hozirgi zamonga ilinib qolish mumkin, asosiy umid kelgusi zamonga (kelgusida “vaqt” tovaridan koʻproq foyda olish mumkin). Shunga nisbatan amerikaliklarning

idrokida “vaqt” konseptining shakli uzunchoq chiziqli ko’rinishga ega va bu chiziq qismlar davomligidan iboratdir:

O’tgan zamon	Hozirgi zamon	Kelasi zamon
--------------	---------------	--------------

Vaqt inglizlar , olmonlar, skandinav xalqlari nazdida ham chiziqli ko’rinishda davom etadi. Ular bir paytning o’zida bir necha yumush bilan shug’ullanishni yoqtirmaydilar, bir vaqt oralig’ida birgina ish bilan mashg’ul bo’lib, uni bitkazgandan so’ng navbatdasisiga o’tishni ma’qul ko’radilar. Shu sababli hamularning zabonida zamon kategoriyasi turli vaqt oraliqlarini ifodalovchi shakllarga boy bo’lsa kerak. Turkiyzabon millatlarda va ko’pgina sharq xalqlarida vaqt idroki tamoman o’zgacha. Bu madaniyatlarda vaqtning kechishi odamlar va voqealar bilan bog’liq emas, u – davriy harakatda. Odamlar o’z faoliyatlarida ush budavriylik aksini ko’radilar va unga moslashadi. Vaqt aylanma xalqa atrofida harakatlanganidek, inson faoliyati ham (tabiat, borliqdagi voqealar kabi) bir osqichdan ikkinchisiga o’tib, davra atrofida kechaveradi. Sharqliklar g’arbliklardan farqli ravishda, har bir harakatga kirishishdan oldin uzoq mulohaza yuritishga tayyordirlar, har bir qadam oldingidavrga nisbatan qo’yiladi. “Vaqt” tushunchasini davriy ko’rinishda idro etuvchi millatlar o’tgan va kelasi zamonlarni idrok qilishda g’arbliklardan tubdan farq qiladilar. Vaqtni uzunchoq, (orqaga qaytmaydigan) chiziq ko’rinishida tasavvur qiladigan madaniyat vakillari o’tgan zamonga orqada qolgan hodisa sifatida qarab, kelajakni “peshona”da turgan umidbaxsh hodisa deb qabul qiladilar. Sharq madaniyatining asosiy qismida o’tgan zamon, aksincha, doimo ko’z oldidagi davrdir, u ko’rinib turganligi uchunham biz bu davr ta’siridamiz, undan saboq olamiz. Madagaskarda yashovchi elatlarda biror bir faoliyatni bajarishdan oldin vaqtni hech qanday ayamasdan o’z ajdodlari suyaklarini qazib olib, ular bilan maslahatlashib olish odati bor ekan. Kelasi zamon esa, aksincha, xuddi ularni orqadan quvib kelib, atrofda aylanib, keyin yana orqaga (o’tmishga) qaytadigan davrdek tasavvur qilinadi. “Vaqt” tushunchasining bu

tarzda turlicha idrok etilishi muloqotning kechishida, uning milliy-madaniy normalarida o'z aksini topmay qolmaydi. Aynan shu qoidalarining ta'sirida Sharqda muloqot matni ko'proq rituellikka, marosimiy tusga moyilroq. Italyanlar, ispanlar va boshqa ayrim yevropaliklar uchrashuv va muloqotda asosiy e'tiborni emotsionallikka, kutilmaganda ijro etiladigan harakatlarga qaratadilar, yaponlar, koreyslar har qanday tadbirni bosqichma-bosqich, har bir bosqich boshlanishi va tugallanishini aniq chegaralash, bu chegarani shaklan belgilashga uringanlar. Yuqorida keltirilgan "vaqt" konseptining turli madaniyatlar vakillari idrokidagi farqlari ushbu konseptning grammatikalashuvi jarayoniga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, turkiyzabon xalqlarda o'tmishdan saboq olish, ajdodlar tajribasiga tayanish, ma'naviy qadriyatlarga ehtirom nihoyatda kuchli.

Shuning uchun ham turkiy tillar grammatik tizimida o'tgan zamonni ifodalovchi fe'l shakllari miqdor jihatidan hozirgi va kelasi zamon shakllaridan ko'proq. O'zbek tili grammatikasiga oid qo'llanmalarda zamon kategoriyasini ifodalovchi shakllar quyidagicha tavsiflanadi;

1) O'tgan zamon:

- a) yaqin o'tgan zamon fe'li (bordi, kuyladi);
- b) uzoq o'tgan zamon fe'li (borgan edi, kuylagan edi);
- c) o'tgan zamon hikoya fe'li (borib edi, kuylab edi);
- d) o'tgan zamon davom fe'li (borar edi, kuylar edi);
- e) o'tgan zamon maqsad fe'li (bormoqchi edi, kuylamoqchi edi).

2) Hozirgi zamon:

- a) hozirgi zamon davom fe'li (boryapti, kuylamoqda, borayotir);
- b) hozirgi kelasi zamon fe'li (boradi, kuylaydi).

3) Kelasi zamon:

- a) kelasi zamon gumon fe'li (borarman, kuylarsan);
- b) kelasi zamon maqsad fe'li (bormoqchiman, kuylamoqchi).

O'zbek tili grammatik tizimida mavjud bo'lgan o'tgan zamon formalarining ma'no va grammatik xususiyatlari beqiyos, ular muloqot jarayonida turli vazifalarni bajaradilar. Kelasi zamon shakllari esa kam miqdorda, ular bajaradigan vazifalardoirasi ham cheklangan. Bizda o'tmishdan ibrat olib, hozirga e'tibor qaratiladi. Shu sababli bo'lsa kerakki, kelasi zamon shakllariifodalaydigan harakatlar mazmunan "shartli" yoki "gumonli". O'zbek tili fe'l tizimining bilimdoni A. Hojiyev ta'kidlaganidek, "(Balki) ertaga kelar" deganda, "Harakatning bajarilish yoki bajarilmasligini haqiqatda ham so'zlovchining bilmasligi ifodalanadi"⁷gumon qanchalik shartli bo'lsa, istakning ijrosi ham shunchalik gumonli. Demak, foydani hozirdan qidirmoq kerak. Muloqot faoliyati uchun makon va zamon hodisalarining muhimligini

unutmasligimiz kerak. Har bir voqea ma'lum makon va zamonda kechadi hamda u yoki bu hodisa haqidagi axborotni qabul qilayotgan tinglovchi uning qachon, qayerda sodir bo'lganligini bilishga intiladi. Bundan tashqari, axborotning to'liq idroki uchun, har qanday faoliyat ma'lum shaxs (shaxslar) tomonidan bajarilishi sababli, ushbu faoliyat amalining subyekti haqidagi ma'lumot ham talab qilinadi. Demak, "qachon" va "qayerda" savollari "kim" savolining hamrohligida nutqiy tuzilmamundarijasini belgilaydi. Voqelikda kechayotgan hodisalar bayonida va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davri, paytini ko'rsatish muhim hisoblanadi. Bunday ko'rsatish vazifasini **zamon** (vaqt) **deyksisi** vositalaribajaradi.

Zamon deyksisi xuddi makon deyksisi kabi jiddiy o'rganilgan, dunyo tillarida bu ikki asosiy turdagi elementlar bilan amalga oshiriladi: ko'rsatish olmoshlariva ularning o'xshashliklarini o'z ichiga olgan otli guruhlar (shu o'rmonda, shu yili) va ravishlar turiga kiruvchi elementlar (bu yerda, bugun, avval). Bundan tashqari, ko'p tillarda paytni ifodalash uchun shu nomdagi grammatik toifa mavjud: "Men maqola yozyapman" iborasi hozirgi zamon fe'li bilan gapirilayotgan paytni

⁷Хожиев А. Феъл. // Ўзбек тили грамматикаси, Т., I том, Морфология. –Т.: Фан, 1975. -366-б

bildiradi. O'zbek tilshunoslaridan Huriniso Usmonova "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 2006-yil 6-sonida "Payt uzvli propozitiv nomlar" nomli maqolasini e'lon qildi. Muallif ushbu maqolasida makon va zamonning munosabatini, o'zbek tilida ularning ifodalanishi xususida izlanishlarini, fikrlarini bayon qilgan. Payt uzvli propozitiv nomlar ko'p jihatdan o'rin uzvli qurilmalarga yaqin turadi. Chunki, "zamon va makon moddaning asosiy yashash shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham zamon va makon modda bilan uzviy bog'liq, universal va umumiyxususiyatga ega bo'lganhodisadir". Zamon vaziyati muayyan lisoniy vositalar yordamida ifodalanganligi tufayli, u grammatikadagi zamon shakllari semantikasining asosi sanaladi. Gap predikatining predikativlik shakli orqali absolyut zamon ma'nosi anglashilsa, gap tarkibidagi payt semasiga ega bo'lgan leksemalar orqali esa, ko'pincha, nisbiy zamon ma'nosi ifodalanadi. Temporal (zamon) argumentli subyekt-predikat qurilmalarida predikatning predikativ shakldan nopredikativ shaklga transformatsiyaqilinishi natijasida uning barcha argumentlari shu qurilmaning ichki uzvlariga aylanadi va barcha ichki uzvlar bir butun holda gap tarkibidagi asosiy predikatga nisbatan argument bo'lib keladi. Falsafiy kategoriya sifatidagi zamonning ikki xil turi kabi lisoniy kategoriya sifatidagi zamonning ham ikki xil turi ajratiladi:

- 1) Absolyut zamon ma'nosi;
- 2) Nisbiy zamon ma'nosi.

Agar harakat yoki vaziyatning nutq momentiga nisbatan munosabati e'tiborga olinsa, absolyut zamon harakat yoki vaziyatning nutq momentiga nisbatan emas, balki, boshqa momentga munosabatiga qarab belgilansa, nisbiy zamon hisoblanadi. Ega pozitsiyasida kelgan propozitiv nomning uyushtiruvchi markazi, odatda, predmet bo'lgani sababli, payt uzvli qurilmalarning payt anglatuvchi vositalari ko'proq paytga munosabat bildiruvchi vositalar bilan ifodalanadi. O'rin uzvli propozitiv nomlar singari, payt uzvli propozitiv nomlar ham ega pozitsiyasida kelganda, ularning kengayishi sifatdosh oborotlar hisobiga

bo'lishi kuzatiladi. Masalan: Haligina derazadan qiya tushib o'tgan kunham g'oyib bo'ldi. Ega pozitsiyasida kelgan qurilmaning markazi bo'lgan "kun" leksemasi o'zgarib kelyapti. Sifatlovchi tarkibidagi "tushib turgan" ifodasi boshqa a'zolari o'ziga ergashtirib kelgan. Payt uzvli qurilmalar o'rin uzvli sintaktik qurilmalarga ancha yaqin turadi. Moddaning muayyan zamon va makon bilan aloqadorligi inson ongidan tashqaridagi obyektiv jarayon bo'lib, bu obyektiv jarayonni inson sezgi a'zolari orqali ongida aks ettiradi. Inson ongida aks etuvchi moddaning zamonga munosabati zamon (temporal) vaziyati sanaladi. M. Xaspelmat (1997) ishlarida ko'rsatilishicha, dunyo tillarida zamon (vaqt) iborolari (xuddi shuningdek, deyshtik iboralar ham) odatda makon (o'rin) iboralaridan hosil bo'ladi. Rus tilidagi proshloe (o'tmish) so'zi bunga misol bo'la oladi. Bu an'anaviy jarayon keng metaforaga asoslangan. **"VAQT – BU KENGLIK"**. Natijada zamon va makon deyshtisi orasida o'tish hodisalari paydo bo'lishi mumkin. Masalan: "Buriish oldida benzokolonkani ko'rasan"ga o'xshash iboralarda qaysi deyshtis qatnashganini aniqlash qiyin – makon (o'rin) deyshtisimi yoki zamon (payt) deyshtisimi? Zamon yoki temporal deyshtisni ifodalovchi vositalar voqea sodir bo'layotgan hech qanday paytni ko'rsatmasdan, balki biror bir nutqiy akt ijrosidan oldingi yoki keyingi davrga ishora qiladi. Haqiqatda ham, zamon deyshtisi iboralarining ba'zilar ayrim vaziyatlarda o'tgan davrga ishora qilsa, boshqa vaziyatlarda qo'llanganda, kelasi zamon mazmunini ifodalaydi:

Sentabr oyidami? Men o'shanda Toshkentda o'qishda edim.

Bayram ertagami? Siz bilan o'shanda ko'rishamiz.

Ushbu turdagi nutqiy tuzilmalar mazmunini to'g'ri anglash uchun ularning aytilgan (bitilgan) paytni fahmlashimiz lozim. Agarda biz idora eshigidagi "Ikki soatdan so'ng qaytaman" yozuvining qachon osilganini bilmasak, xodimni qancha muddatga ketganini va qachon qaytishini bila olmaymiz. Zamon deyshtisi ham (xuddi makon deyshtisidek) makon va zamon tushunchalarining nodeyshtik voqelanishi (konseptual va lisoniy bosqichlarda) bilan bog'liq hodisadir. Bu bog'liqlik zamon va makon maydonlarining semantik tarkibida o'z aksini topadi.

Barcha til va madaniyatlarda zamon maydoniga oid tushunchalar kun vatun, oy, mavsum, yil kabilarning almashinuvi bilan me'yorlanadigan o'lchovga egadirlar. Bu o'lchov, o'z navbatida, **taqvimli** ko'rinishdayuzaga kelishi mumkin. Zamon tushunchalarining taqvimli voqelanishida Ch. Fillmor o'sha mashhur "Santa Kruz ma'ruzasi"da aytganidek, "voqealar biror bir mutlaq origo (lat. "manba", "boshlang'ich nuqta) bilan bog'langan "mutlaq davr (zamon)dan joy oladi". Masalan, bugun, erta, kecha kabilar deyktik o'lchovli deyktik birliklar qatoriga kiradilar va ular bir kunlik vaqt oralig'i me'yori bilan farqlanadi. Taqvimli belgilar vaqt oralig'ining aniq o'lchoviga ishora qilmaydilar. Binobarin, "Dushanba kuni ko'rishamiz" gapining mazmunini to'liq anglash, qaysi dushanba nazarda tutilayotganini bilish uchun ushbu va'da qachon (qaysi kuni) berilayotganligini bilish zarur (bu va'da yakshanba va seshanba kuni aytilishiga nisbatan vaqt o'lchovi bir kundan yetti kungacha farq qiladi). Shuning ushun ham taqvimli temporal birliklar aniq deyktik mazmun olishlarida aniqllovchilar yordamiga muhtojlik sezadilar: o'tgan yakshanba, kelgusi payshanba, joriy yilning dekabri, shu kecha kabilar. Zamon deyksisining temporal mazmun ifodasining asosiy manbalaridan bo'lgan zamon kategoriyasi bilan bog'liqligi masalasi muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu kategoriyaning deyksis hodisasini shakllantiruvchi manbalar qatoriga kiritish uchun barcha gaplar nutqiy faollashganda zamon mazmunini ifodalaydilar, degan fikrni e'tirof etishga majburmiz. Ammo "Uch karra uch to'qqiz", "Pilla qurti tut bargini yeydi" kabi gaplar qaysi zamonga (mantiqan) oid ekanligini bilish qiyindir. Zamon kategoriyasining mundarijasi, uning semantik va shakliiy – grammatik xususiyatlarining deyksis maydonida tutgan o'rni alohidadir. Bajarilayotgan turli ish-harakat, faoliyatlarning zamon maydonida o'rin olishi turlicha kechadi. Ko'pchilik holatlarda bu o'rin va davr noaniq bo'lib qolaveradi. Sankt – Peterburglik tilshunos Aleksandr Vladimirovich Bondarko "davriy makongaega bo'lgan va davriy makonsiz harakat, faoliyat vaziyatlarini" farqlashni taklif qiladi. Ushbu nomuvofiqlikni o'z paytida sezgan polyak olimi E. Koshmider ham "Uch karra uch to'qqiz" qabilidagi "umumiy haqiqat"ni yoki mavhum faktlarni ifodalovchi tuzilmalarnivaqt oralig'i qatoridan o'rin olmaganligini qayd

etadi. Uningcha, “vaqt oralig’ida joylashish” va bunday o’ringa ega bo’lmaslik o’rtasidagi farq grammatik shakllarda o’z ifodasini topadi. Yuqorida ko’rsatilayotgan farqlar asosan formal – semantik xususiyatga ega. Bu hodisa pragmatik tahlil nuqtai nazardan olib qaralganda esa, ular o’rtasidagi nomuvofiqlikning keskin emasligi ma’lum bo’ladi. Buning isbotini ko’rsatilgan gaplarning matn tarkibida faollashuvi misollarida izohlash mumkin. Umuman, voqea sodir bo’lishi, ish-harakat kechishi davriga oid mazmunning grammatik shakl mazmuniga mos kelishi doimiy talab emas. Binobarin, “Teshaboy Boltaboyni urdi” gapi kechki paytda aytilayotganida, “Teshaboy Boltaboyni ertalab urdi” mazmunini bersa, bu gap ertalabki paytda aytilganida esa voqea kecha sodir bo’lganligi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, ingliz tilidagi If I had a car “Agarda mashinam bo’lganida, (tezda yetib kelar edim)”, If I was rich “Agar boy bo’lganimda (edi), sayohatga chiqqan bo’lar edim” kabi tuzilmalarda temporal mazmun grammatik shakl bilan bog’liq emas. Boshqacha aytganda, bu tuzilmalardagi o’tgan zamon shakli voqeaning o’tgan yoki nutqiy akt bajarilishidan oldingi davrda sodir bo’lishidan ma’lumot bermaydi. Aksincha, izhor qilinayotgan istak, xohishning ijrosini hozir yoki kelajakda kutish mumkin. Shakl va mazmun o’rtasidagi bunday nomuvofiqlik doim kuzatilib turiladigan holatdir. Shuning uchun ham zamon kategoriyasi o’z formal ifodasini topmagan tillar (masalan, xitoy tili) temporal deysis mazmuni ifodasi imkoniyatidan mahrum, deb qaralmasligi lozim. Ma’lumki, barcha voqea-hodisalar aniq makon va zamonda kechadi, ammo inson tajribasida uning lisoniy faoliyatida markaziy o’rinni egallaydigan ushbu konseptlar mohiyatiga bo’lgan munosabat bir xil emas. Masalan, Amerika, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda “vaqt (zamon)” tushunchasining mohiyati turlicha talqin qilinadi. Amerikada (hamma narsa boylik orttirishga jamiyatda) vaqt – qimmatbaho tovar, nutqiy harakat bajarilishi vaqt davriyligi doirasidan tashqarida hech qachon yuzaga kelmaydi. Har qanday muloqot ma’lum davrda kechadi, nutqiy harakat aniq bir vaqtoralig’ida ijro etiladi. Demak, zamon deysisi nutqiy harakat mazmuni va mundarijasini belgilashda asosiy o’rinni egallaydi. G. Yul autganidek, “deyktik iboralar,

chegaralangan miqdorda bo'lishlariga qaramasdan, keng ko'lamda qo'llanadilar va ular har bir alohida qo'llanishiga nisbatan ko'proq kommunikativ mazmun ifodalaydilar". Zamon deysisi ham bundan mustasno emas, bu turdagi deytik belgilarning pragmatik mundariyasi kontekst va so'zlovchi (yozuvchi) ning kommunikativ maqsadi, muloqot intensiyasi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, deysis hodisasi muloqot tizimida yagona bir maydonni tashkil qilishini va ushbu maydonda markaziy (yadroviy), oraliq hamda chet qismlar mavjudligini unutmaslik kerak. Eng asosiysi, ushbu qismlarning sarhaddoshligi, o'zaro munosabati, qayerda va qachon yuzaga kelishini aniqlashdir. Zamon va makon deysislari boshqa deytik mazmun ifodalovchilari uchrashadigan, o'zaro qorishadigan hudud ekanligiga hech kimning gumoni bo'lmasa kerak. Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari egallagan o'ringa ishora makon deysisi mazmunini tashkil qiladi. Voqelikning idrok qilinishi va bu idrokning lisoniy ifoda topishiikki asosiy lisoniy – tafakkur harakatini talab qiladi: birinchidan, voqelik parchasini tavsiflash lozim bo'lsa, ikkinchidan, uni ma'lum makonda joylashtirish talab qilinadi. Ammo makonda joy olishning o'zi ham ikki ko'rinishda bo'ladi. Obyektlar bir – biriga nisbatan joylashadilar:

- a) Registon Samarqandning markazida joylashgan;
- b) Rasadxona janubiy kenglikning 50-gradusida joylashgan.

Bu misollarda makon deytik mazmunga ega emasdek tuyuladi, chunki bunday makon tasavvuri va ifodasida muloqot ishtirokchilarining o'rni yo'q. Makon muloqot ishtirokchilarining muloqot kechayotgan paytdagi o'rniga nisbatan belgilanishi deytik xarakterga ega:

- v) Afrosiyob bir chaqirim narida (uzoqda);
- g) Rasadxona bu yerdan ikki chaqirim sharqda.

Makon deysisini nodeytik mazmundagi makon ifodasidan farqlash ayrim hollarda ancha qiyinchilik tug'diradi. Har holda, barcha tillarda deytik iboralar

tizimi mavjud bo'lib, ular ma'no va grammatik xususiyatlari jihatidan turli guruhlarga ajraladilar:

- 1) o'rin ravishlari: here, there, over there – ingliz tilida; her, da, doh – nemis tilida; zdes, tut, tam – rus tilida; shu (bu) yerda, u (o'sha) yerda – o'zbek tilida.
- 2) ko'rsatish olmoshlari: this (these), that (those) – ingliz tilida; etot (eti), tot (te) – rus tilida; bu (bular), o'sha (o'shalar) – o'zbek tilida.

Ushbu guruhlardagi birliklar shaxs va predmetlarni nutqiy muloqot hududidan “yaqin” yoki “uzoq” joylashishiga nisbatan tavsiflash maqsadida qo'llanadi. Bunday tavsifda makonning uzoq yoki yaqinligi nafaqat so'zlovchiga, balki tinglovchiga – adresatga nisbatan ham belgilanishi mumkin. Bundan tashqari, harakatning kim tomonga yo'nalish olishi ham deytik ibora qo'llanishiga ta'sir ko'rsatadi. Harakat yo'nalishining qaysi makonga yo'l olishi fe'llar semantikasiga ham deytik mazmun bag'ishlaydi. Binobarin, “Xonaga kir”, “Uyga kel, “Uyga ket” kabi buyruq shakllarida deytik ma'no borligi va ushbu ma'no so'zlovchidan uzoqlashish yoki yaqinlashish harakati bilan bog'liq ekanligi o'z isbotini topgan (ayrim fe'llar deytik mazmunga ega ekanligini ilk bor qayd etganlardan biri Ch. Fillmordir). Deytik makonning uzoq yoki yaqinligidagi bunday farq nutq ontogenezida o'z aksini topar ekan, so'zlovchi tomon yo'naltirilgan harakat makoni ko'zga tez va aniq tashlanadi va shu sababli bo'lsa kerakki, yosh go'daklar “bu”, “bu yerda” kabilar bilan ifodalanadigan deytik ma'noni tazroq o'zlashtiradilar. Bu deytik iboralar “u” va “u yerda” birliklaridir, chunki, ular mazmunida yosh bolaning bevosita ko'rish hududidan tashqaridagi obyektga ishora anglashiladi. Eng qizig'i, ayrim tillarda deytik makonning uzoq va yaqinligi yoki voqelik obyektining so'zlovchi ko'z o'ngida yoki uning nazdidan tashqarida bo'lishi o'z leksik – grammatik ifodasini topadi. Masalan, nemis tilida uzoqroqda joylashgan predmet ko'rinib yoki sezilib tursa, “da” – “u yerda” ravishi qo'llansa, bu predmet ko'rinmay va sezilmay turganda, “dort” – “u” ravishi ma'qul ko'riladi.

Shuningdek, Amerika qit'asining shimoliy-g'arbidagi hindular tili tlingitda ko'rsatish olmoshlari "aynan shu (shu yerda)", "yaqindagi shu", "u tomondagi shu" mazmunlarini ifodalashlari bilan o'zaro farqlanadilar. Bunday farqni biz o'zbek va boshqa turkiy tillar ko'rsatish olmoshlari tizimida ham sezamiz: "bu" ("so'zlovchiga yaqin"), "shu" ("adresatga yaqin"), "u" ("so'zlovchi va adresatdan uzoqda"). Charlz Fillmor Indiana universiteti lingvistik klubida 1971-yilda o'qigan deyksis haqidagi ma'ruzasida deytik iboralar nutqda qo'llanishini uch turga bo'lishni taklif qilgan:

- 1) "uzoqdagi" va "yaqindagi" obyektni bevosita ko'rsatish vazifasini bajaruvchi lisoniy belgi – jestlar (gestural use);
- 2) Ma'lum axborot, bilim tashuvchisi (bu bilim ushbu muloqot vaziyatidan yoki mustaqil ravishda egallangan bo'lishi mumkin) bo'lgan ramziy belgi (symbolic use);
- 3) Anaforik bog'lovchi sifatida.

Deytik birlikning birinchi turdagi qo'llanishini I want you to put it there "Unio'sha yerga qo'yishingni istayman" misolida ko'rib chiqamiz. Bu gap mazmunidan so'zlovchi bevositamakonga ishora etayotganligi anglashiladi. Telefonda gapirayotgan kishining Is Johnny there? - Jonni shu yerdami? deb bergan savolida makonga ishora ramziydir (symbolic) va unda deytik birlik there "sen (siz) turgan joyida(mi?) mazmunini oladi. Xuddi shu birlikning anaforik o'rindosh sifatida qo'llanishini esa I drove the car to the parking lot and left it there – Mashinani to'xtash joyiga haydab bordim va uni o'sha yerda qoldirdim, gapi misolida ko'rish mumkin. Bu holatda makon mazmunini beruvchi ibora (there) matnda oldindan eslatilgan makon, ya'ni "to'xtash joyi" iforasi bilan hamreferentdir. Deytik vositalarning jest-ishoraviy va ramziy (gestural and symbolic) qo'llanishidagi farqni ko'rsatish olmoshlarning turli nutqiy tuzilmalar tarkibida faollashuvi misolida ham sezish mumkin. Masalan, ma'ruza o'qiyotgan professor "Bu barmoq – bosh barmoq" desa, talabalar daftardan boshlarini ko'tarib, qaysi barmoq ekanligini ko'rmoqchi bo'lishadi. Lekin domla "bu bino"

birikmasini qo'llaganda, talabalar bosh ko'tarib qarashlariga uncha ehtiyoj yo'q, zero, ular domla "hozir men (biz) turgan bino" mazmunini ifodalashga urinayotganligini hafmlab turishibdi. Birinchi holatda deysis jest xususiyatiga ega, keyingisida esa ramziy.

2.2. Zamon ifodalovchi birliklar uslubiati.

Zamon ma'nosini ifodalovchi birliklarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, olmoshlar katta hajmni egallaganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda boshqa til birliklari ham zamon ma'nosini ifodalay oladi. Masalan, mustaqil so'z turkumlaridan son va ravishlar ham shunday xususiyatga egadirlar. Misol uchun oladigan bo'lsak, kechqurun, ertalab, tushlikda, saharda, avval, keyin, so'ng ravishlari ham paytni ifodalaydi yoki ularga ishora qilib, deysliklik xususiyatini namoyon etadi: Nigora ertalab hamma ishlarni qilib bo'ldi, so'ng xolasinikiga yo'l oldi, gapining ikkinchi qismida qo'llangan "so'ng" ravishi birinchi qismdagi birikmaning o'rnida kelib, nutqiy ortiqchalikdan saqlagan va tejamkorlikka erishilgan. Deysis hodisasiga oid masalalar muhokamasibilan mashg'ul olimlar makon va zamon deysislaridan qaysi biri asosiy ekanligini aniqlashga intiladilar. Bunday muammo paydo bo'lishining sababi bu ikki turdagi deysisning matn tarkibida o'zaro munosabatda bo'lishi, biri ikkinchisini taqozo etishi, lozim bo'lganda, o'zaro o'rin almashtirishimomkinligidadir. Bundan tashqari, yagona bir ibora vositasida ikkala deyslik mazmunni ifodalash imkoniyatining mavjudligidadir. So'zsiz, makon deysisi zamon deysisiga nisbatan mantiqan va nutqiy faoliyatdagi o'rni jihatidan muhimroq. Boshqacha aytganda, makon deysisi doimo yashirin(gan) zamon deysisi bilan birikib ketadi. Nihoyat, deysis hodisasining ijtimoiy belgilari haqida gapiriladigan bo'lsa, muloqot ishtirokchilarining roli, ularning ijtimoiy tabaqalanish darajalari ham so'zlovchi-adresat munosabatida aniqlanadi. Bularning barchasibizningcha, deyslik iboralarning (ayniqsa, olmosh va ravishlarning) paydo bo'lishmasalasiga bir oz bo'lsa-da oydinlik kiritishi mumkin. Zero, tilning asosiy vazifasimuloqot vositasi

sifatida xizmat qilish bo'lsa, unda kommunikativ mazmunni ifodalashning asosiy vositalari bo'lgan deytik belgilar boshqa lisoniy belgilardan oldinroq paydo bo'lishgan emasmikan!?Yohud deyxsis tizimi lisoniy faoliyatni ta'minlovchi, til tizimi markazida turuvchi hodisa, deb e'tirof etilishi mumkinmi!?Ushbu savollarning ritorik ruhda qolishini istamasdik. Zero, voqelik idrokida qayerga? qayerda?qayergacha? qachon?qachongacha? qanday? qay yo'sinda? nima uchun?kabi savollarga javob izlashga majburmiz. Bu tarzdagi savollarning tug'ilishiga sabab voqelik idroki **SHAXS** bilan bog'liq ekanligida. U voqelikni o'z ko'z o'ngida , tasavvurida kechayotgan hodisa sifatida qabul qiladi, uni o'ziga, o'z shaxsiga nisbatan baholab, bayon qiladi. Shuning uchun ham nutqiy tafakkur va lisoniy ong markazida idrok **shaxsi** turadi, uning MENi axborotning lisoniy bayoni uchun boshlang'ich nuqtadir. Bu markaz voqelik bayonida **KIM** savoli orqali tavsiflanadi. Shuning uchun ham voqelik bayonida zamon – makon – ijtimoiy mavqe markazlari muloqot SHAXSi tomonidan belgilanib, yagona deytik maydonni tashkil qiladi. Deytik iboralarning til ontogenezisida muhim o'rin egallashi ularning go'daklar nutqida ilk bosqichlarda paydo bo'lishidantashqari,bu iboralarsiz to'laonli muloqotning kechishini tasavvur qilishning o'zi qiyin. Biz ko'pincha yosh bolalarga va katta yoshdagilarga til o'rgatishda lisoniy birliklar (masalan, so'zlar) ma'nosi yetarli deb hisoblaymiz. Ammo lisonni o'zlashtirishni bunday o'ta soddalashtirish noto'g'ri hulosadir. Yosh bola “soat 10:30” tuzilmasining mazmunini anglashi uchun lisoniy belgilar yetarli emas. U “hozir”, “bugun”, “mening”, “sening”, “bu”, “shu yerdagi”, “kechagi”, “oldingi” kabilarvositasida voqelanadigankontekst ko'rsatkichlarini ham bilishi talab qilinadi. Shu qatordagi deytik iboralarning qaysi vaziyatda , qanday sharoitda qo'llanishini bilmasdan turib, “soat 10:30” nutqiy tuzilmasi mazmunini voqelik bilan bog'lab bo'lmaydi. Lisonni bilish, uning sohibi bo'lish, hayotiy faoliyat turlarini bilishdir. Til ta'limi ham ijtimoiy, kundalik faolioyatda mavjud bo'lgan va yangidan yuzaga keladigan hodisalar, vaziyatlarni anglash va ularni lisoniy bayon qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmog'I kerak. Axir biz o'quvchilarga yangi so'zlar, iboralarni tushuntirayotganimizda, yangi voqelikni

tushuntiramiz-ku! Bu voqelik bayonini muloqot muhiti bilan bog'lash ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchigina lisoniy bilimga ega bo'lishi mumkin. Lisoniy faoliyat inson ongli faoliyatining ajralmas qismi. U lison va ijtimoiy tajriba uyg'unligida kechadi. Til ta'limining kognitiv asoslari aynan shu tamoyilga asoslanadi. Endi, deytikiboralarining tizimiy xususiyatlariga qaytaylik. An'anaga binoan farqlanib kelinayotgan asosiy guruhlar shaxs, zamon va makon deytik iboralaridan iboratdir. Yuqorida aytilganidek, deyksis mayoni markazida shaxs turadi. Nutqiy muloqot jarayonida bajarayotgan rolga nisbatan shaxs deyksisining tarkibi aniqlanadi. Birinchi shaxs so'zlovchining o'rniga ishora, "o'zini ko'rsatishi, eslatishi"ning lisoniy ifodasidir, ikkinchi shaxs – tinglovchi yoki adresantning lisoniy belgilanishi hamda uchinchi shaxs muloqotning bevosita ishtirokchisi bo'lmagan shaxsga ishoradir. Muloqot ko'chishiga qo'shgan hissasiga nisbatan farqlanayotgan ushbu tizim olmoshlar guruhlarida o'z aksini topadi. Olmoshlaresa, o'z navbatida , uch shaxsdan tashqari, ko'plik, rod kabi kategorial belgilar aslida o'zaro farqqa ega bo'ladi. Ammo ko'plik son belgisiga ega bo'lgan olmosh har doim ham birlik sondagi olmoshga to'g'ridan-to'g'ri mos kelavermaydi. Jumladan, "biz" har qanday kontekstda ham so'zlovchilarning soni ko'p ekanligini anglatmaydi. Shuning uchun ham "biz" olmoshi qo'llanilgan ayrimholatlarda uzatilayotgan axborot mazmunini va ko'plik soni qaysi ma'noda voqelanayotganini aniqlash tinglovchining ixtiyoridadir. Masalan, ingliz tilidagi We clean up after ourselves a room here gapini tinglovchi ikki xilda anglashi mumkin: tinglovchi o'zini adresat guruhiga qo'shadi yoki bu guruhga kirmaydi. Shunga nisbatan, eksklyuziv "biz" (exclusive "we") va inklyuziv "biz" (inclusive "we") ko'plik shakllari farqlanadi. Bularning birinchisida (eksklyuzivlikda) "biz" "so'zlovchi va boshqalar" ma'nosini anglatib, bu guruhga adresatni kiritmaydi, ikkinchisida esa so'zlovchi "biz" deganida adresatni ham nazarda tutadi. Ayrim tillarda eksklyuzivlik va inklyuzivlik o'z grammatik ifodasiga ega. Masalan, fojian (qizil tanlilar tili) lahjasida keimami – eksklyuziv birinchi shaxs ko'plik olmoshi bo'lsa, keda ushbu olmoshning inklyuziv mazmundagi shaklidir. Inklyuziv va eksklyuzivlikning farqi, shuningdek, ingliz tilidagi Let's go va Let us go

tuzlimalari mazmunida ham namoyon bo'ladi. Birinchi ibora qo'llanilayotganida, so'zlovchi biror do'stiga (do'stlariga) murojaat qilib, harakatni birgalikda bajarishga chaqirmoqda: "Ketdik!" "Ketaylik!" "Ketamiz!" Let us gogapida esa so'zlovchi o'zi va hamrohlarini qo'yib yuborishini, ketishga ijozat berishini iltimos qilmoqda: "Bizga ketishga ijozat bering!". Demak, bu holatda birinchi shaxs ko'plik eksklyuziv "biz"ni anglatadi, tinglovchi – adresat ijozat so'ralayotgan harakat ishtirokchisi ham emas. Bundan ko'rinib turibdiki, nutqiy muloqotning ikki asosiy ishtirokchisi bo'lmish so'zlovchi va adresatdan boshqa nafaol qatnashchilar ham til tizimida o'z grammatik ifodasini topishim mumkin. Ammo bu ifoda turli tillarda turlicha ko'rinish oladi. Binobarin, yapon tili olmoshlar tizimi shakllarga boy ekanligi ma'lum. Bu tida so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqei, qaysi jinsga oidligiga nisbatan olmoshlar qo'llanishida farq mavjud. Bu gapda so'zlovchilarning barchasi faqatgina o'ta ehtiromli "vatakusi" olmoshini bir xilda ishlatishlari mumkin, boku, ore, vasi kabi atasi, atakusi shakllarini ayollar ma'qul ko'rishadi. Yapon tilidagi II shaxs olmoshlari ham qachon va kimga nisbatan qo'llanishiga nisbatan katta farqqa ega. Bulardan omae qo'pol, qo'rs mazmunida bo'lsa, anta – hurmat ma'nosini ifodalaydi, kimi esa so'zlovchi biror shaxsni o'ziga yaqin olib murojaat qilganida faollashadi. Umuman, yapon tili olmoshlar guruhlari o'ta murakkab tizimni tashkil qiladi va murakkablik tarjimonlar faoliyatida katta muammolar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Buning misoli sifatida A. Remboning "Mast kema" she'rining yaponcha tarjimasi yo'lidagi urinishlarini kaeltirish mumkin. Ma'lumki, farang shoiriningushbu she'ri kema nomidan shaxsda yozilgan va bir necha tarjimonlar uni yapon tiliga o'girishdaturli olmoshlarni qo'llashga harakat qilishgan, lekin qanday olmoshga murojaat qilinishidan qat'iy nazar, asl niyatdan boshqa bo'lgan ma'no paydo bo'lavergan. Olmoshni qo'llamaslik esa nutqning sun'iy tus olishiga sabab bo'ladi. Shaxs deyxsisini ifodalovchi vositalar haqida gapirayotib, til tizimida uchinchi shaxs olmoshi ham alohida guruhga ajralishini unutmaslik lozim. Bu guruhdagi olmoshlar semantik va kommunikativ mohiyati jihatidan boshqalaridan tubdan farq qilishi allaqachon qayd etilgan. Bilamizki, birinchi va ikkinchi shaxslar bevosita

muloqot ishtirokchilaridir va “men” : “sen” guruhlaridagi olmoshlar “kommunikativ shaxs” larni ifodalaydi. Uchinchi shaxsolmoshlari esa bunday xususiyatga ega emas, ularning referenti – muloqotning bevosita ishtirokchilari bo’lmagan “nokommunikativ shaxs” lardir. A. A. Ufimseva, uchinchi shaxs olmoshlarining bunday semantik xususiyatini hisobga olib, ular bajaradigan asosiy vazifa deydik mazmun ifodasi bo’lmasdan, balki o’rin almashtirish (olish) deb hisoblaydi. Olimaning ushbu fikrini bir tomondan quvvatlasa bo’ladi, chunki uchinchi shaxs olmoshlari ma’no jihatidan “men” va “sen” olmoshlaridan ancha farq qilishi ma’lum. Ammo kommunikativ jarayonda uchinchi shaxsning rolini inkor qilib bo’lmasligini ham unutmash lozim. To’g’ri, muloqot kechishida nutq subyekti va uning tinglovchisi munosabati markaziy o’rinni egallaydi va deydik maydon markazi ham shu munosabat doirasida belgilanadi. Balki shu sababli “men” va “sen” olmoshlarining deydik mundarijasi ravshanroq ko’rinadi va tadqiqotchilar ularni deydik ibora sifatida e’tirof etishdan hech tortinmaydilar. Biroq buning bilan uchinchi shaxsni kommunikativ jarayon doirasidan butunlay chetga surib qo’yib bo’lmaydi. Bu shaxs muloqotning “nafaol ishtirokchisi” (side participant) yoki unda bayonning ishtirok etmayotgan “kuzatuvchisi” (bystander) sifatida farqlanadi. Ikkala turdagi ishtirokchilar, lozim bo’lganda, muloqotning kechishiga bevosita ta’sir o’tkazadilar. Nafaol ishtirokchi va kuzatuvchi G. G. Pocheptsovning e’tiroficha, “men” va “sen” ga qarama-qarshi turadigan “u” dir. Bundan tashqari bu shaxs “men” va “sen” ning muloqoti jarayonida “shu yerda” bo’lib, shu yo’sinda kommunikantlar nutqiy faoliyatiga bevosita ta’sir o’tkazadi. Uchinchi shaxsning kommunikativ mohiyati yetarli darajada ekanligini e’tiborga olib, “u” olmoshini shaxs deksisini ifodalovchi lisoniy vositalar qatoriga qo’shish mumkin. Ushbu olmoshning A.A. Ufimtseva qayd etgan “o’rin almashtirish” vazifasiga kelsak, bu vazifa barcha turdagi olmoshlar uchun xosdir. O’rin almashtirish vazifasining bajarilishi nutqiy aktda yoki matnda **koreferentlik** (hamreferentlik) hodisasi mavjud bo’lishini talab qiladi. Qiyoslash uchun misollar: Men Boltayevni yaxshi bilaman, bunday odamlar hech qachon qiyinchiliklardan chekinmaydilar; Kumush kundalikni doimo to’ldirib boradi va uni hech qachon unutib qoldirmaydi. Voqelik

bo'lagining lisonda turlicha ifodalanishidan iborat bo'lgan koreferentlik anafora yoki anaforik ishora vositasida namoyon bo'ladi. Anafora nutqiy tuzilma bo'laklarining mazmunan bog'lanishini ta'minlaydi, u koreferentlik haqida ma'lumot beruvchi lisoniy hodisadir. Tilshunoslar anafora hodisasiga tavsif berayotib, an'anaga binoan anaforik olmoshlarning matnning oldingi qatorlarida eslatilgan referentini izlashgan. Koreferentlik mazmuni paydo bo'lishi uchun old referentning mavjud bo'lishi zarur. Ammo referentning matnda turlicha o'rin olishi mumkinligini ham unutmaslik kerak. Ayrim hollarda olmoshlarning referentini ifodalovchi birliklarni matnning keyingi qatorlaridanizlashga majbur bo'lamiz. Matndagi yashirin, bevosita ifoda topmagan yoki matn qismlari munosabatini hisobga olib izlanadigan koreferentlik "assotsiativ anafora" hodisasini yuzaga keltiradi. Bu turdagi anaforik bog'lanishni aniqlashda matn mundarijasini bilishdan tashqari o'quvchi(tinglovchi)ning umumiy bilim darajasi ham muhim rol o'ynaydi. Mazmuniy bog'lanishning bunday matn va umumiy bilim hamkorligida yuzaga kelishini biz, ayniqsa, metonimiya va metafora tuzilmalari hosil bo'lishida aniq ko'ramiz. Masalan, "Oybek javonning ustki qavatida. U charm muqovali" tuzilmasida "Oybek" va keying qatordagi "U" birliklarining bog'liqligini bilishda o'zbek tilida kitobni muallif nomi bilan atash "lisoniy kelishuv" asosidagi umumiy qoida ekanligiga tayanamiz. Bunday "lisoniy kelishuv" barcha tillar uchun ma'lum bo'lgan kognitivhodisa ekanligi ham ma'lum. Shunday qilib, o'rin almashtirish – anafora vazifasining bajarilishi ishora vazifasini inkor qilmaydi. Anafora deytik mazmundan holi emas, bu ikki vazifa yagona bir kontekstda, ayni bir paytning o'zida bajarilishi mumkinligini hozirgacha hech kim inkor etganicha yo'q. Bu borada J. Layonzning ikki jildlik "Semantics" asarida keltirilgan misolni eslaylik: I was born in London and have lived there ever since "Men Londonda tug'ilganman va shundan buyon o'sha yerda yashayman". Bu misolda there "o'sha yerda" o'z koreferenti "London" bilan anaforik bog'lanishda bo'lishdan tashqari, ushbu nutqiy harakatning Londonda ijro etilayotganligi haqida ishora ma'lumotini ham bermoqda. Tinglovchi (o'quvchi) matn va nutqiy tuzilmalar idroki, ularning mazmunini anglash jarayonida til birliklarining matndagi bog'lanishini (anafora

bunday bog'lanishning bir turi) aniqlash bilangina chegaralanib qolmasdan, balki inson ongida aks topgan voqelik hodisalari haqidagi bilim "tasma"siga ham murojaat qiladi. Mazmun ana shu turdagi matn va voqelik, lisoniy va qomusiy bilim munosabati asosida yuza keladi. Farang kognitolog olimi G. Fakonnierning ta'biricha, "Lison mazmun tashuvchi emas, uni faqatgina boshqarib boradi. Ma'lum bir ma'no yoki mazmunni u yoki bu lisoniy birlikning "mulki"ga aylantirish ushbu birlik mohiyati haqidagi noto'g'ri tasavvurga sabab bo'lishi mumkin. Yaxshisi, mazmunni inson kognitiv faoliyatining natijasi bo'lgan matn tuzilishidan, uning tarkibidagi bog'lanishlardan izlagan ma'qul. Uchinchi shaxs olmoshlarining ma'no xususiyatlari ham bundan mustasno emas. Deyksis kategoriyasiga pragmatiklikning asosiy tadqiq obyektlaridan biri sifatida qaragan G. Yul, shaxs deyksisining uch qismli ekanligini ("men", "sen", "u") qayd etayotib, e'tiborni dunyoning ko'pgina tillarida so'zlovchi, adresat va uchinchi (kuzatuvchi yoki muloqot ishtirokchisi bo'lmagan) shaxs – jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeiga nisbatan nomlanishlariga e'tiborni qaratadi. Eng asosiysi, bu tillarda shaxs ijtimoiy mavqei maxsus lisoniy birliklar, grammatik shakllar vositasida ifodalanadi. "Honorifiklar" (honorific) deb atalayotgan ushbu birliklarning nutqiy muloqot matnlarida qo'llanish sotsial deyksis hodisasining namunasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu deyksisni faqatgina janubiy-Sharqiy Osiyo tillarida (masalan, xitoy, yapon, koreys tillari) tarqalgan maxsus grammatik shakllar – "honorifik"lar tizimi bilan bog'lash ushbu hodisaning tor ma'nodagi talqiniga sabab bo'lishi mumkin. Bizningcha, Ch. Fillmorning sotsial deyksisni "gaplarning nutqiy akt ijro etilayotgan ijtimoiy muhitning amaliyligi bilan shartlangan va ushbu amaliylikni aniqlab, aks ettiruvchi xususiyatlariga oid hodisa", deb qarashi anchagina haqiqatga yaqindir. Ammo ushbu ta'rif ham to'liq darajada qoniqarli emas. Birinchidan, sotsial deyksis mazmunini gap doirasida emas, balki muloqot matni tarkibida hosil bo'luvchi fakt sifatida qarash lozim. Ikkinchidan, kommunikantlar ijtimoiy mavqesining qaysi belgilari qanday holatlarda kommunikativ munosabatlarda aks topib, matn tarkibida lisoniy voqelanish darajasiga yetib kelishini e'tiborga olmasdan turib, sotsial deyksisning

mundarijasini va mohiyatini yoritib bo'lmaydi. Bu fikrlarni isbotlash uchun G. Yul keltirgan bir misolni keltiramiz. Ma'lumki, hozirgi zamon ispan tilida II shaxs olmoshlari, huddi o'zbek tilida bo'lganidek, "sen" va "siz" ko'rinishiga ega: "tu"/"usted". Ammo hozirgi paytda hurmat ma'nosida qo'llanilayotgan "Usted" tarixan uchinchi shaxs olmoshi bo'lgan. Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari o'rtasidagi kommunikativ masofani ifodalashga bo'lgan ehtiyoj uchinchi shaxs olmoshining vazifaviy ko'chishiga sabab bo'lgan va "usted" sotsial deysisning ifoda vositasiga aylangan. Aynan shunday vazifaviy ko'chish holatlari o'zbek tilida ham kuzatiladi: "O'zlari keldilarmi?!" ("Keldingizmi?!" ma'nosida) yoki "Unga gapiraman, sen eshit" qabilidagi "O'rinlarini yig'ishtirib olsalar, yaxshi bo'larmidi?!" bilvosita nutqiy aktlaridir. Lison borliqni idrok etish va u haqida axborot uzatish vositasi ekanligi haqida gapirildi. Ammo lison borliqni aynan aks ettirmaydi, u borliq bilan o'z ichki tuzilishi orqali munosabatda bo'ladi. Tillar o'z tuzilishiva grammatik qurilishi bilan farq qiladilar. Hind-yevropa va turkiy tillar oilalariga mansub tillar grammatik tizimida birlik va ko'plik (ba'zan juft) son shakllari mavjud bo'lgan bir paytda, Janubiy-Sharqiy Osiyo tillarida idrok qilinayotgan xususiyatlarning sonini ko'rsatish shart emas. Shuningdek, oxirgi guruhdagi tillarda fe'llar shaxs kategoriyasiga ega emas, ammo ularda sotsial mavqe tizimiga ishora qiluvchi shakllar mavjud. O'zbek tillida ham fe'l shakllarida hurmat kategoriyasi o'z ifodasini topadi ("Janobi oliylari tashrif buyurdilar"), ammo ot tizimida, german va roman tillarida bo'lganidek, aniqlik/noaniqlik ma'nolari grammatik ko'rinishni olmaydi. Masalan, ingliz tilidagi A house is on the hill gapidagi noaniqlik mazmuni "Tepalikda qandaydir bir uy turibdi" qabilida tushunilsa, The house is on the hill gapi esa "(Bu, o'sha) uy tepalikda turibdi" ko'rinishida o'giriladi. Lisonning borliqni idrok etishdagi rolining muhimligini uqtirgan E. Sepir o'z paytida, bu idrokni lison ishtirokisiz kechishi mumkinligi haqida o'ylab ham ko'rmaslikka chaqirgan edi: "Odatda, o'ylaganlaridek, insonlar obyektiv dunyoda va ijtimoiy faoliyat dunyosida oddiygina emas, balki ular katta miqyosda ushbu jamiyat uchun ifoda vositasi xizmatini o'tayotgan tilning ta'siri ostida yashaydilar. "... aslida, ushbu "obyektiv borliq" beixtiyor ma'lum guruhga

xos bo'lgan lisoniy normalar (me'yorlar) doirasida tarkib topadi. Biz u yoki bu hodisalarni asosan bizning jamiyatimizda barqaror bo'lgan lisoniy me'yorlar aynan shu ifoda shaklini tanlaganligi sababli xuddi shu yo'sinda ko'ramiz, eshitamiz hamda idrok etamiz". Ustozining ushbu ta'rifini o'z maqolasiga epigraf sifatida tanlagan Benjamin Uorf lisonning inson faoliyatiga ta'sirini uning qo'llanishidagi umumiy qonuniyatlardan izlash bilan chegaralanib qolmasdan, balki hodisalar bahosida ham ko'rish lozimligini alohida ta'kidlaydi. Keyinchalik tilshunoslar tomonidan "Sepir-Uorf farazi" deb nomlangan ushbu foyani eslashimizdan maqsad – sotsial deyksis mazmuni va ifodalanishini faqatgina grammatik shakllar tizimidan izlash shart emasligini isbotlashdir. Ushbu mazmunni ifodalovchi manba turli tillarda turlicha bo'lishi aniq, har qanday tilda so'zlashayotgan shaxs axborot uzatish bilan bir qatorda ushbu axborotga hamda muloqotdoshga bo'lgan munosabatlarini ham bildirishga majbur. Suhbatdoshga nisbatan bildirilayotgan munosabat yashirin yoki ochiq, ijobiy yoki salbiy, bevosita yoki bilvosita va boshqa ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkin. Bu turdagi munosabatlarning barchasi sotsial deyksis hodisasi mundarijasida o'z aksini topadi. Har qanday til va madaniyatda sotsial deyksisning ikki asosiy turi o'z belgisiga ega. Bular, ijtimoiy mavqening doimiyliigi va o'zgaruvchan yoki nisbiyligi aks topishiga nisbatan, mutlaq sotsial deyksis (absolute) va nisbiy (relational) sotsial deyksis yorliqlarini olishgan. Sotsial deyksis mazmunining nisbiyligi o'z navbatida, so'zlovchining referent, adresat, kuzatuvchi (III shaxs) va ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabatida, nutqiy faoliyat harakatlarining ular bilan bog'liq holda kechishida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, bu bog'liqliklar ko'pgina holatlarda ma'naviyat va madaniyat qadriyatlariga qaram holda shakllanadilar. Xususan, ayrim tillarda suhbatdoshlar ijtimoiy mavqening grammatik tizimda aks etishini qarindoshlik, urug'chilik kabi tabaqalanishlar munosabatida ham ko'rish mumkin. Barcha madaniyatlarda mavjud bo'lgan murojaatning tabu shakllari (masalan, er-xotinning bir-biriga farzandining ismi bilan yoki "dadasi", "onasi" shakllaridagi murojaati) shunday munosabatlarning lisoniy voqelanishiga misoldir. Muloqot shakllari ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Bunda muloqotning rasmiy va norasmiy

ruhda kechayotganligi alohida e'tiborga loyiq. Chunki rasmiy va norasmiy munosabatlarning grammatik va lug'aviy birliklar vositasida belgilanishi qariyb barcha tillar uchun umumiy qoidadir. Ammo ba'zi tillar uchun bu qoida o'ta majburiy xususiyatga ega bo'lib, ushbu tillar grammatik tizimidan mustahkam o'rin egallaydi. Bu borada, ayniqsa, yapon va koreys fe'l tizimi alohida ajralib turadi. Birgina "o'qi!" imperative yo me (o'ta qo'pol), yonde kure (biroz yumshoqroq, o'zidan past mavqedagiga buyurilganda), yonde – o-kure (yanada yumshoqroq), yonde yare tyoday, yominasay, yomitamae (norasmiy muloqotda), o-yominasay (biroz hurmat ma'nosida), yonde kudasay (hurmat shakli), o-yomi kudasay (ehtimolli "marhamat, o'qing" mazmuniga ega), o-yomi kudasaimasi (o'ta ehtimolli) kabi shakllarda ifodalanishi mumkin.

XULOSA

Muloqot jarayonida, u og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'iy nazar, inson, shaxslararo munosabatni ta'minlash vazifasini bajaradi. Muloqot – murakkab ko'rinishdagi nutqiy tafakkur faoliyatidir. Deyksisning kategorial belgilari va ifoda vositalarini qiyosiy-tipologik tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish niyatini ko'zlagan hamyurtimiz professor Sotiboldi Rahimov qariyb 20 yil oldin ushbu hodisani til tizimining qaysi sathiga oidligini aniqlash muammosini muhokamaga qo'ygan. Bu muammo ustida bosh qotirgan olim til tizimi bilan bir qatorda til birliklarining qo'llanish tizimi ham mavjudligini qayd etadi, bu tizim til birliklarining nutq tarkibiga kirishi va uning tuzilishida ishtirok etishini ta'minlovchi qoidalar majmuasidan iborat. Deyksis aynan shunday til birliklari qo'llanishi tizimining bir qismi bo'lib, matnning mazmuniy yaxlitligini ta'minlovchi vositadir. Deyksis vositasida matn mazmuni zamon va makon mo'ljallariga ega bo'ladi, uning modallik xususiyatlari shakllanadi. Haqiqatdan ham, deyksis iboralarining barcha vazifaviy xususiyatlari muloqot matnida namoyon bo'ladi hamda u matn mazmunini tarkib toptiruvchi eng muhim vositadir. Bir vaqtlar Arastu “U o'tiribdi” kalimasi mantiq jihatidan har qanday holatda yagona hukm (fikir) bo'lib qolishini, ammo “vaziyat o'zgarishiga nisbatan ba'zan rost yoki yolg'on bo'lishi “mumkinligini” qayd etib o'tgan edi. Bildirilayotgan hukmning haqiqat yoki yolg'onlik qiymatini belgilash uchun nutqiy faoliyatning zamon va makon ko'rsatkichlariga tayanish lozimligi boshqa mantiqshunoslar tomonidan ham e'tirof etilgan. Bulardan ko'rinadiki, deyksis turlari ichida zamon deyksisning ahamiyati katta va u turli yangidan-yangi ma'no qirralarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuningdek u doimo makon bilan birgalikda qo'llaniladi. Yunon faylasufi Demokrit “hech bir narsa sababsiz paydo bo'lmaydi, aksincha, hamma narsa ehtiyojga nisbatan paydo bo'ladi va biror bir asosga ega bo'ladi” degan so'zlari, bizning tadqiqot mavzuyimiz - “Zamon deyksisi”ni ajratish va uni o'rganish jarayonida ham haqiqat ekanligi yaqqol ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. -Тошкент, “Маънавият”, 2008.
2. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив - прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. ДДА. -Тошкент, 2011.
3. Бюлер К. Структурная модел языка. в кн.; Звегинцев В. А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях, Ч.2. — М.: УЧПЕДГИЗ, 1960.
4. Лутфуллаева Д., Давлатова Р. Ўзбек мулоқот матнининг дейктик бирликлари. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 6-сон.
5. Лутфуллаева Д., Қурбонова М. Болалар нуткига хос дейктик бирликларнинг фонопрагматик талқини. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, 6-сон.
6. Набиева Д. Ўзбек тили сатҳларида диалектик категорияларнинг намоён бўлиши. -Тошкент, “Шарқ”, 2005.
7. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. —Тошкент, “Шарқ”, 2001.
8. Нурмонов А., Ҳакимов М. Лингвистик прагматиканинг назарий шаклланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001.
9. Негматов Ҳ., Воҳидова Н., Тойирова Г. Структурал тилшуносликдан прагмалингвистика // Хорижий филология. 2007 йил, 4-сон
10. Мўминов С. Сўзлашув одоби. -Фарғона: “Фарғона”, 1997.
11. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг жинс жиҳатидан хосланиши. // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 5-сон.
12. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Т.: Фан ва технология нашриёти, 2007.

- 13.Раҳимов С. Дейктические маркеры локальности в современном узбекском языке // Советская тюркология. 1986. №2.
- 14.Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. – Т.: Фан, 1989.
- 15.Рахимов с. типология текстообразующих категорий: семантика. прагматика. функция –Андижан, 1990.
- 16.Раҳимов С., Ниёзова Д.А. Нутқий мулоқот бирликларининг функционал-грамматик ва социолингвистик хусусиятлари // тил тизими ва социал муҳит. – Самарқанд: САМДЧТИ, 2007.
- 17.Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: САМДЧТИ, 2007.
- 18.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти. -Тошкент – 2008.
- 19.Усмонова Ҳ. Пайт узвли пропозитив номлар. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, 6-сон.
- 20.Ҳожиёв А. Феъл. // Ўзбек тили грамматикаси, -Т. Морфология. –Т.; Фан, 1975.
- 21.Ҳақимов. М. Ҳ. Ўзбек тилидаа матнинг прагматик талқини. ДДА. - Тошкент, 2011.
- 22.[www.//google.ru](http://www.google.ru) “Временный дейксис”
- 23.[http://www. pedagog. uz/](http://www.pedagog.uz/) Pedagogik ta’lim muassasalari portali.
- 24.[www.ziyonet.uz.](http://www.ziyonet.uz)